Ular tomonidan yaratilgan yangi usul maktablari milliy intellektual elitamizni, milliy fanimizni rivojlanishiga juda katta turtki berdi. Jadidchilikni nafaqat yangi oqim sifatida baholash kerak, balki unga Turkistonda yangi iqtisodiy-siyosiy qayta qurish konsepsiyasining tug'ilishi, gumanitar fanlar, ijtimoiy-siyosiy fikrlarning gullab – yashnagan davri deb qarash kerak. Jadidlar o'sha davrda jaholatdan ma'rifat orqali chiqish yo'llarini izladilar. Ularning ko'pchiligi sovet totalitar rejimining qurbonlariga aylandilar. XX asrning 20-yillarida Turkistonda birinchi milliy kadrlar tayyorlashda, milliy intelligensiyani shakllanishida Toshkent (O'rta Osiyo) Davlat Universiteti katta rol o'ynadi. Bu universitet 1918 yilda mahalliy vatanparvar – ma'rifatchilar tomonidan tashkil etildi va o'z faoliyatini Turkiston Xalq Universiteti nomi bilan boshladi. 1920 yilda Davlat Universiteti maqomini oldi. Bu dargoh O'zbekistonda oliy ma'lumot va fanning keyingi rivojiga katta hissa qo'shdi. Keyinchalik O'zbekistonda bir qator Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari va ilmiy-tekshirish institutlari tashkil etildi.[6] 30 - yillarda O'zbekiston fani rivojida burilish davri bo'ldi. Birinchi milliy kadrlarimiz, milliy olimlarimiz respublika xalk

---

[5] 3) Bernal D.J. Nauka i obshestvo M. 1953

[66] 4) Kurilin V.A. Stranisi istorii nauki i texniki M. 1986

xo'jaligini rivojlantirishning bir qator amaliy va nazariy muammolari ustida samarali ilmiy ish olib bordilar.

Barcha ilmiy fanlar va yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatgan olimlardan: geologlar X.M. Abdullayev, G.A.Mavlonov, N.A.Kenesarin, matematiklar T.N.Qori- Niyoziy, T.A.Sarimsoqov, biologlardan T.Z.Zoxidov, A.G.G'ulomov, ximiklar A.S.Sodiqov, K.S.Ahmedov, tarixchi Ya.G'.G'ulomov va boshqalar bu fan yunalishlarining asoschilari sifatida dunyoga tanildi. Ilmiy-tekshirish muassasalari tarmoqlarining tez o'sishi natijasida ular ishini koordinasiyalash va boshqarish maqsadida 1932 yil O'zbekiston Fanlar Qo'mitasi tashkil etildi. 1940 yil 8 oktyabrda Qo'mita bazasida SSSR FA ning O'zbek filiali tashkil etildi. 1941 yil O'zbekistonda 8 ming ilmiy xodim ishlagan 75 ta ilmiy muassasa mavjud edi. Milliy intelligensiyamizning shakllanishi jarayoni murakkab davrda kechdi. Qatag'onlar uning safidagi sara gullarni olib ketdi. Biroq bu O'zbekistonda fan rivojini to'xtata olmadi. Urush yillarida o'zbek olimlari Markazdan evakuasiya qilingan olimlar bilan birga bir qator ilmiy muammolar ustida samarali mehnat qildilar. 1943 yil 4 noyabrda O'zbekiston FA ning tantanali ochilishi bo'lib o'tdi. Unga 10 ta ilmiy tekshirish institutlari kirdi. Uning birinchi prezidenti etib matematik T.N. Kori-Niyoziy saylandi. 1944 yillar oxirida FA tizimida 22 ta ilmiy muassasa faoliyat ko'rsatdi. 50-70 yillarda Respublikada yangi talantli olimlar pleyadasi vujudga keldi. Bular: geolog-akad. I.X.Hamraboyev, bioximik-akad. Ya.X.To'raqulov, ximiklar – akad. M.N.Nabiyev, S.N.Yunusov, texnika fanlari sohasi akademiklari- M.T. O'ozbayev, M.A.Xodjinov va boshqalarning ilmiy ishlari dunyoga tanildi. 50 yillar boshlarida fan rivojiga qatag'onlarning yangi to'lqini salbiy ta'sir ko'rsatdi. 30-yillarda qatag'onlar asosan partiya, sovet, xo'jalik va harbiy kadrlarga qaratilgan bo'lsa, 50-yilning boshlarida qatag'onlar asosan fan va madaniyat arboblariga zarba berdi. 60-80 yillarda xalqaro munosabatlarning keskinlashuvi, «Sovuq urush» va «Qurollanish poygasi» XSK (VPK) harbiy sanoat kompleksi sohasida bir qator fan tarmoqlarining rivojlanishi zaruratini keltirib chiqardi. Baxtga qarshi XSK sohasidagi yangi texnologiyalar xalq xo'jaligi sohasiga joriy etilmadi. Natijada SSSR boshqa rivojlangan davlatlarga nisbatan sanoat va texnologik taraqqiyot borasida birmuncha orqada qola boshladi. Shunga qaramasdan bu davrlarda O'zbekistonning chet el davlatlari bilan ilmiy va madaniy aloqalari rivojlandi. O'zbekistonning ilmiy tekshirish muassasalarida 300 dan ortik chet el olimlari bo'lishdi. Respublika o'quv dargohlarida minglab chet el talabalari bilim olishdi.

Xulosa

Fan bilan texnikaning o'zaro bog'liq, yagona, ilgarilab boruvchi taraqqiyoti; ijtimoiy taraqqiyot asosi. Dastlab fan rivoji bilan texnika taraqqiyoti o'rtasidagi yaqinlashuv

XVI–XVIII-asrlarda manufaktura ishlab chiqarishi bilan bog'liq holda sodir bo'ldi. Bungacha moddiy ishlab chiqarish empirik tajribalar, hunarmandlik asosida shakllangan. Teologiya va sxolastika ta'siridagi tabiat haqidagi ilmiy nazariy bilimlar ham ishlab chiqarishga xech qanday salbiy ta'sir qilmasdan sekinlik bilan rivojlangan.Ilmiy va texnikaviy taraqqiyot inson faoliyatining 2 ta nisbatan mustaqil yo'nalishi sifatida yuksala boshlagan.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati

1) Abdunabiyev A. Saidov M. Sto imen v vitke istorii. T. 2000
2) Bernal D.J. "Nauka v istorii obshestva" M.1956
3) Bernal D.J. Nauka i obshestvo M. 1953
4) Kurilin V.A. Stranisi istorii nauki i texniki M. 1986

"Mirzo Ulug'bekning astronomiya maktabi"

Yo'ldosheva Sevara
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada Mirzo Ulug'bekning astronomiya maktabi, undagi ustozlari, o'sha davrning mashhur yetishib chiqqan shogirdlari haqida fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, riyoziyot, astronomiya Al Koshiy

Kirish 1337 yilda Turkiyaning Bursa shahrida tavallud topgan Qozizoda Rumiy taniqli qomusiy olim va faylasuf Shamsiddin al-Fanoriydan dastlabki saboqlarni o'rgandi. Oxir-oqibat, bu ustoz arab va fors mudarrislari dars beruvchi Movarounnahr va Xurosonning mashhur madrasalarida astronomiya va riyoziyotni chuqur o'rganish uchun Qozizodaga Turkiyani xufiyona tark etishda yordam beradi. Rumiy Samarqand madrasasida falakiyot va riyoziyot fanlarining nufuzli ulamolaridan biriga aylandi va Ulug'bekka ham ustozlik qildi.[7] Qozizoda o'zi bilan birga al-Fanoriy tomonidan tuzilgan fanlar majmuasini ham olib kelgan edi. U bu asarni Ulug'bekka o'rgatadi. Biroq Qozizoda Ulug'bekda astronomiya faniga bo'lgan noyob qobiliyatni sezib, uni ko'proq ushbu fanni chuqur o'rganishga yo'naltiradi. Ulug'bek Qozizodadan ko'p ilm o'rgandi va uni ustoz deb bildi.

Ulug'bek o'sha davrning eng mashhur riyoziyotchisi va astronomi G'iyosiddin al-Koshiyni ham o'z maslahatchisi, ustozi deb hisoblagan. Hirotda G'iyosiddin al-Koshiy astronomiyaga qiziqqan Ulug'bekning ukasi Iskandar Sultonga tahsil berardi. Ulug'bek uni 1417 yilda Samarqandga, [8]yoniga chaqirtirib oladi. Al-Koshiy rasadxona loyihasi tashabbuskorlaridan bo'ldi va yulduzlar jadvalini tuzishda faol ishtirok etdi.

Muhokama va natijalar

Ma'rifatli insonlar maslahati bilan Ulug'bek Samarqandda ilm-fanni rivojlantirish, jumladan, falsafa, riyoziyot va falakiyot ilmlari bilan shug'ullanish niyatida katta madrasa qurdirishga qaror qildi. Hali bisyor bo'lgan Temurbek saltanati xazinasi qoldiqlaridan bugungi kungacha Registon maydonida qad ko'tarib turgan va o'z nomi bilan ataluvchi ulkan madrasani barpo qildi. Bu madrasa VIII asrda Bog'dodda al-Mansur xalifaligi davrida boshlangan islom rasadxonalari va maktablari

---

[7] Х,ак;ик;ат манзаралари. 96 мумтоз файласуф. Т, "Янги аср авлоди", 2002.

[8] . Гарб фалсафаси. Т, "Шарк", 2004.

faoliyatida yuz yillar davomida to'plangan tajribalarning davomchisi sifatida tanildi. Dastlabki harakatlar yunon matematiklari va faylasuflarining asarlarini arab tiliga o'girish bilan boshlangan bo'lsa-da, so'ngra fors va hind olimlari o'rtasidagi munosabatlar bilan yanada boyib bordi. Yunon astronomi Klod Ptolomeyning ikki asari, eramizning 130-yillarida yaratilgan, «Almajest» va «Sayyoralar gipotezasi» [9]asarlari Aristotel falsafasi bilan yaqindan tanish bo'lgan musulmon mutafakkirlari e'tiborini tortdi. Ular xuddi xristian va yahudiylar singari diniy bo'linishlikka emas, balkim Ptolomey tomonidan ishlab chiqilgan geosentrik tizimni qo'llab-quvvatladilar: Yer Xudo tomonidan Odam ato uchun yaratilib, o'z o'qi atrofida aylanuvchi qo'zg'almas borliqdir, quyosh va oy boshqa sayyoralar singari mukammal doira shaklida Yer atrofida aylanadi. Bu tizimni harakatga keltiruvchi qonun-qoidalarni o'rganish uchun musulmon astronomlar yunon astronomlari xulosasi va o'zlarining shaxsiy kuzatishlari orasidagi ko'plab qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish borasida hisob-kitob va kuzatishlarni ko'paytirdilar.

Darhaqiqat, VIII asrdan XIV asrgacha bo'lgan musulmon olamida shakllangan ko'plab iqtidorli matematik va astronomlar[10] zamonaviy davrdan oldin bo'lmagan. Ular hind olimlari bilan hamkorlikda yunon astronomlari xatolarini to'g'rilab, asl matematik modellar yaratib, o'z mehnatlari natijalarini bayon qilganlar. Ular diniy ibodatga bog'liq jamiyat savollariga ham javob berishlari lozim edi: muqaddas shahar joylashuvi, ibodat vaqtlari, hijriy yil hisobidagi oyning ko'rinish sanasini aniqlash va hokazolar. Shunday qilib, ular rasadxonalar qurishga kirishdilar, ko'plab matematik hisob-kitoblarni tuzdilar, nuqtaning tekislikdagi va fazodagi holatini hisoblab, samoviy jinslar harakatlarini o'lchash va aniqlash uchun ko'plab turdagi asboblarni ixtiro qildilar. Bu ishlarning nusxalari asosan arab va fors tilida tuzilgan bo'lib, shahardan shaharga, rasadxonadan rasadxonaga almashinib turardi.

Registon maydonidagi madrasaning qurilish ishlari 1417 yildan 1420 yilgacha davom etdi. Biroq "temuriy" uslubidagi ajoyib yodgorliklardan biri bo'lgan bu madrasaning me'mori ismini hech kim bilmaydi: devorlar, minoralar va naqshlar arab uslubidagi geometrik shakllardan tashkil topgan. Ko'k rang, sirli, takrorlanuvchi bezaklar ko'p ishlatilgan.[11]

---

[9] Х,ожи Исматуллох, Абдуллох. Марказий ОсиёдаИслом маданияти. Т.: "Шарк;", 2005.

[10] С.Юлдашев. Антик фалсафа. Т., 1999.

[11] А.Н.Чанышев. Курс лекций по древней философии. М., 1961.

1420 yilda qurilish ishlari tugatilib, Qozizoda dastlabki saboqni Ulug'bek ishtirokida boshlab berdi. Yangi madrasa o'z davrining eng mashhuriga aylandi va al-Koshiy ham u yerda matematika asoslari to'g'risidagi bilimlari bilan talabalarga ta'lim bera boshladi. U bu haqda 1427 yilda tugatgan "Miftoh ul-hisob" «Arifmetika kaliti» asarida qayd etgan bo'lib, asar Ulug'bekka bag'ishlangan va quyidagi kirish so'zlari bilan boshlangan: «Men bu asarni eng buyuk, eng odil, eng oqil va eng mashhur olim Sulton Ulug'bek Ko'ragoniy kutubxonasi uchun yaratdim».

O'quv dasturi kutubxonadagi eng mashhur musulmon astronom va matematiklarining asarlariga asoslanardi. Bu asarlar Ulug'bekning muruvvati tufayli uning xazinasi evaziga qo'lga kiritilgandi. U o'zining yosh hamkasbi Ali Qushchini astronomiyaga oid xitoy qo'llanmalari va taqvimlarini topib kelish uchun hattoki Xitoyga ham jo'natadi.

Ulug'bek al-Koshiy, Qozizoda va boshqa hamkasblari maslahatiga tayanib, ular niyat qilgan ansambl — ulkan astronomik rasadxonaning qurilish loyihasini ishlab chiqishga buyruq beradi. Astronomiya guruhi talabalari madrasa tahsilini tamomlab, o'zlarining kelajakdagi vazifalarini belgilab olishgan bir paytda, shaharning shimoli-sharqidan bir necha chaqirim narida joylashgan Ko'hak tepaligida 1420 yilda rasadxona qurilishi boshlanadi. Lashkarboshilik va hukumat ishlaridan bo'sh vaqtlarida Ulug'bekning o'zi ham o'lchov va hisob-kitoblarda ishtirok etadi.

Ulug'bek Samarqandda darveshlar uchun ulkan gumbazli xonaqoh qurdirdi, xonaqoh hammomi rangli toshlar bilan bezatilgan bo'lib, aholi uni shaharning eng muhtasham imorati deb hisoblardi. Jumladan, u katta karvonsaroylarga o'xshash did bilan yasalgan yog'och o'ymakorli masjid ham qurdirdi. Katta bog' o'rtasida 40 ustunli saroy bunyod ettirib, saroy yonida o'zining miniatyura to'plamlarini saqlash uchun Xitoydan keltirilgan chinni koshinlar bilan bezatilgan ajoyib xona ham qurdirgan. Temurbekning xoki joylashgan Temuriylar maqbarasini qurdirishni davom ettirdi. «Go'ri Amir» maqbarasiga 1425 yilda Mo'g'ulistondan olib kelingan ulkan qora nefrit toshini o'rnatdi hamda Toj Mahal singari muhtasham xonani chiroyli marmar panjara bilan bezatdi. Shohizinda maqbarasi kirish eshigini bunyod ettirdi. Buxoroda yangi madrasalar bino qildirdi.

Uning qobiliyati juda hayratlanarli edi, chunki Ulug'bek nafaqat matematik va astronom, balki kitobsevar, shoir va ulkan tarixchi bo'lib, rasadxona va madrasadagi ta'lim jarayonida va ilmiy izlanishlarda o'zi faol qatnashib, o'z sohasining ustasiga aylangan edi. U yangi munajjim va o'qituvchilarni ishga qabul qilib, ba'zan talabalar bilan kamtarona va ochiq muloqotda bo'lishdan zavqlanardi. Shuning natijasi o'laroq, Ulug'bek matematika sohasida juda qobiliyatli va zehnli bo'lgan yosh Ali

Qushchi, — "lochin ovchisi" bilan tanishib, do'st tutindi. Yosh talaba uning ko'magi sababli, keyinchalik taniqli ustoz va Ulug'bek asarlarining davomchisiga aylandi.

O'z sohasining bilimdoni bo'lgan G'iyosiddin al-Koshiy qurilish ishlarini boshqarish va rasadxona xizmatini yo'lga qo'yish javobgarligini o'z zimmasiga oldi. 1429 yilda tugallangan bu rasadxona butun Osiyoni hayratga solgandi. Afsuski, rasadxonaning qurilishi diniy e'tiqodga nisbatan o'zining hur, mustaqil fikriga ega bo'lgan Ulug'bek to'g'risida ruhoniylar tomonidan nomaqbul fikrlar, mish-mishlar tarqatish, olimni buzg'unchilikda ayblashga asos ham bo'ldi. Ulug'bekni Shohruh davrida Hirotdan quvilgan bid'atchi Qosim Anvar bilan yaxshi munosabatda bo'lganlikda ham aybladilar. Bu kabi voqealar oradan 30 yil o'tgach, rasadxona mavqeining butunlay pasayishiga va ko'plab munajjimlarning bu yerni tark eta boshlashiga sabab bo'ldi. Ulug'bekning fojiaviy o'limidan 50 yil o'tib, 1499 yilda rasadxona batamom buzib tashlandi.

Xulosa

Bugungi kunda rasadxonaning ichki va tashqi ko'rinishi xususida juda oz ma'lumotlarga egamiz. O'sha davrda yashagan olim Abdurazzoq Samarqandiy rasadxonani o'z ko'zi bilan ko'rgan bo'lib, uni quyidagicha tasvirlaydi: «Bino devorlari o'zgarmas yulduzlar, 1/60 soniyali, soniyalar, daqiqalar va osmon gumbazi darajalari bilan bezatilgan. Yana dengizlar, sahrolar, tog'lar, Yer iqlimi mintaqalari ifodalangan dunyo jug'rofiy xaritalari ham bor edi. Bularning hammasi nomutanosib geometrik shakllar va ajoyib suratlar bilan ifodalangan".

Mirzo Bobur o'z xotiralarida shunday yozadi: "Yana bir ulkan imorat astronomik jadvallar tuzishga mo'ljallanib, Ko'hak tepaligida uch qavat qilib qurilgan rasadxonadir».

1908 yili rus arxeologi Viatkin Ko'hak tepaligida rasadxona qoldiqlarini topishga muyassar bo'ldi: diametri 46 — 50 metrli doira shaklidagi imoratga taalluqli bezaklar, g'ishtlar, tosh parchalari, shuningdek, shimol-janub meridiani bo'ylab yo'naltirilgan chuqurligi 11 metr bo'lgan yerosti qismiga olib kirish joyi topildi. Tadqiqotlar davomida arxeologlar devorlarning asosini va yana bir qancha qoldiqlarni topdilar.

Samarqandiy va Bobur qoldirgan qisqa ko'rsatmalar va xaroba qoldiqlari tufayli o'zbek, rus va boshqa davlat arxeologlari o'sha davr arxitektura qurilishini hisobga olib, Marog'a, Damashq va Bag'dod kabi dunyoning mashhur rasadxonalari qurilish arxitekturasiga tayangan holda Ulug'bek rasadxonasi loyihasini tikladilar. Bino doira shaklida bo'lib, balandligi 30,42 metrni tashkil qiladi, taxminan 15 metrli tepalikni qo'shib hisoblasak, rasadxona yer sathidan qariyb 45 metr balandlikda bo'lgan. Yassi marmarli asosga qurilgan uch qavatli binoning har bir qavati

tashqariga qaragan 32 ta arkdan iborat edi. Devorlarning tashqi tomoni sirli koshinli ranglar, ayniqsa, ko'k rang, arab harflari va gul shakllari bilan bezatilgan edi. Bino to'g'ri meridian bo'ylab joylashtirilgan 21,6 metr radiusli sekstant arki bilan teng ikki qismga ajratilgan.

 Foydalangan adabiyotlar ro'yhati

1. Х,ак;ик;ат манзаралари. 96 мумтоз файласуф. Т, "Янги аср авлоди", 2002. 2. Маънавият юлдузлари.Т., 2001.

3. Гарб фалсафаси. Т, "Шарк", 2004.

4. Х,ожи Исматуллох, Абдуллох. Марказий ОсиёдаИслом маданияти. Т.: "Шарк;", 2005.

5. С.Юлдашев. Антик фалсафа. Т., 1999. 6. В.Ф.Асмус История античной философии. М., 1965.

7. А.Н.Чанышев. Курс лекций по древней философии. М., 1961.

Xalqlar turmush tarziga oid xususiyatlarni tarjima qilish muammolari

Shernazarov Ixtiyor Ilhom o'g'li
Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

Xalqlar turmush tushunchalarini ifoda etadigan lisoniy vositalar tarjimasi bo'yicha hanuzgacha bizda ham, xorijiy mamlakatlarda ham tarjima amaliyoti ravnaqi uchun ozmi-ko'pmi xizmat qilishi uchun mumkin bo'lgan jiddiy tadqiqotlar yaratilmaganligi tufayli mazkur mavzuga oid qator masalalar o'zining ilmiy amaliy yechimini kutmoqda.Rus tarjimashunosi professor A.V.Fedorov va Bolgariyalik olimlar Sergey Vlaxov va Sider Florinlarning ushbu mavzuga bag'ishlab yozgan asarlari masalani atroflicha yoritishdan ko'ra ilmiy jamoatchilik mazkur muammoga e'tiborini qaratgan.

Bu san'atkorni asl nusxadagi xos so'zlarni tarjima matniga ko'chirish yoki mumkin bo'lmagan taqdirda ham ularni tarjima tilidagi xos so'zlar bilan almashtirib qo'yish xavfidan saqlab qoladi.Tarjima amaliyotiga vazifaviy uyg'unlik nuqtai nazaridan yondashish asliyatdagi bunday ifoda vositalarining hajm, vazn, miqdor, xislat, xususiyat va vazifa aniqligini qayta yaratadi, shu bilan birga tarjimaning keng kitobxon ommasiga yaxshi tushunarli bo'lishiga erishish imkoniyatini beradi. Xos so'zlarni ona tiliga o'girishda avvalo ularning muayyan kontekstlarda o'tab kelayotgan uslubiy vazifalarini aniqlash, so'ngra tarjima tilida ularga har jihatdan mos, ayni paytda shu til me'yori va madaniyati darajasidagi lisoniy vositalar tanlash zarurati tug'iladi.

Milliy tushunchalarni ifoda etadigan xos so'zlarning ayrimlari asliyat mansub bo'lgan tildan tashqari yana qator xalqlar talafuzlarida uchrashi, jumladan tarjima tili lug'at zahirasining ham tarkibiy qismi hisoblanishi mumkin. Bunday so'zlar hudud, turmush sharoit jihatlaridan bir-birlariga yaqin, doimiy munosabat va muloqotda bo'lib turadigan xalqlar talafuzida ko'proq uchraydi. Bu tarjimonni amaliy qiyinchiliklardan xalos etadi.Kavkaz, rus,ukrain, belaruslar, o'zbek,qozoq,qirg'iz,turkman va tojiklar uchun umumiy bo'lgan ko'pgina milliy xususiyatli so'zlar shular jumlasidandir.

Masalan, asliyatga mansub bo'lgan xalqqa xos pul hamda boshqa o'lchov(masofa-uzunlik-sig'im-og'irlik) birliklari, ro'zg'or ashyolari, kiyim-kechak, yegulik-ichkulik kabi ko'pgina tushunchalarni anglatadigan so'zlarni transliteratsiya yo'li bilan talqin etish asarda aks etgan o'ziga xos muhim va sharoitning kitobxon ko'z oldida ochiq-oydin jonlanishini ta'minlaydi. Amerika Qo'shma Shtatlari"dollar"ning, ingliz "funt sterling"ning, nemis "marka"siyu xind

"rupiya"sining transliteratsiya qilmasdan, o'zbek "so'm"i bilan almashtirib qo'yilishi, AQSH "brendi", ingliz "viski"si, yapon "sake"si, meksika "abardien"ining rus "vodka"si orqali talqin etilishi ingliz boshiga "shlyapa" o'rniga o'zbek "do'ppi"sini, egniga "palto" yoki "plash" o'rniga "to'n" yoki "yaktak" kiygizab qo'yish bilan barobardir.

Asosli transliteratsiya katobxon tasavvurini boyitadi, uning tili lug'at zahirasini kengaytiradi. Masalan, ruscha "tansevat'" so'zi o'zining birgina ma'nosi bilan o'zbekcha "raqs tushmoq" birikmasiga mos ekvivalent bo'la olardi.Uning boshqa bir ma'nosi – erkak va ayolning qo'l ushlashib davrada aylanishini, bu usulda raqs tushish o'zbeklarga xos bo'lmagani tufayli o'zbek tilida o'z ekvivalentiga ega emas.Mazkur so'zni transliteratsiya usulida talqin etish esa o'zbek tili lug'at boyligini kengaytiradi.Hozirgi umumxalq tili lug'at tarkibidan o'rin olgan "tansa qilmoq" birikmasi azaldan o'zbekcha "raqsga tushmoq" birikmasi bilan sinonimik qator hosil qilgani holda, omma tasavvurini boyitadi.

"Makler", "biznes", "spikker", "killer", "komp'yuter", "internet", "menejment" kabi ko'plab yangi so'zlar ham o'zbek tiliga transliteratsiya usuli bilan kirib keliishi bilan lug'at boyligimizni yanada boyidi.

Shunday qilib tarjima amaliyotining transliteratsiya usuli milliy tillar boyishiga keng yo'l ochgani holda, ularning fikr bayon qilish imkoniyatini oshiradi, adekvat, shu bilan birga asliyat milliy bo'yog'ini kitobxon ko'z oldida aynan jonlantiradigan ifodalar vuzudga keladi. Xozirgi kunda o'zbek tili jahonning boy va qudratli tillaridan biriga aylangan ekan, uni bu darajaga etkazgan omillardan biri lug'at tarkibidagi ko'pchilik o'zga xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan lisoniy vositalarning transliteratsiya usuli bilan qabul qilinib, tilning har qanday nozik fikrni ham ifoda eta olishi layoqatini oshirib yuborganidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 220 b.

2.10 Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari - Toshkent: O'qituvchi, 1983 - 220 b.

3.Salomov G'. Adabiy an'ana va badiiy tarjima.- Toshkent: Fan, 1980. - 158 b.

4.Salomov G'. Tarjima tashvishlari. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. - 190 b.

5.Salomov G'. Til va tarjima. – Toshkent: Fan, 1966. – 280b.

6.Salomov G'., N.Komilov. Do'stlik ko'priklari. - T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – 221 b.

7.Sodiqov Z. So'z ma'nosi // Tafakkur. – Toshkent, 2000 - № 3. - B.116-118.

8.Hojiev A. Tilshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent: Fan, 2002.

9.Homidov H., Sh.Abdullaeva, S.Ibrohimova. Adabiyotshunoslik terminlari lugʻati. - Toshkent: Oʻqituvchi, 1970.- 288 b.

10Komissarova U. N., Koralova A. L. «A manual of translation from English into Russian». M., 1990

11.Gʻafurov I. Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish. Toshkent: "Mehridaryo" nashriyoti, 2008.

12.Jacques Pinlaux. Proverbes et dictons français. Paris, 1986.

13.Mirhaydarova N.K., Musayev S.S., Aliqulov T. fransuzcha maqollarning oʻzbekcha-ruscha muqobillari. Toshkent: "Oʻqituvchi", 1994. 128 bet.

"Baburnama" is the first encyclopedic dictionary

Nabiyeva Parvina Akbarjonovna

Abstarct. "Baburnama" is the masterpiece of Zahiriddin Muhammad Babur. Scientists have found that 28,000 words are used in this work, and it attracts the attention of many researchers. Although many scientists have worked on this work, there are still some unexplored issues. This can be an example of a thesaurus, which is one of the current problems in the field of linguistics. In this article, some of these words are explained scientifically as a thesaurus. In the process of creating a thesaurus of the work, we can success many new scientific achievements in computer linguistics.

Key words: Thesaurus, personal names, place names, turban, recitation, concubine, court, computer linguistics, commander, hierarchy, memoir.

Language is the main means of preserving and enriching our spiritual heritage. Researching classic works, determining the scientific, spiritual and educational value of written sources, studying the features of artistic language are among the urgent issues of the field of philology. We have the opportunity not only to get acquainted with all the scientific-historical and literary works created by the Turkic nations, but also to study within the field of Turkology. Among them, the works of Zahiriddin Muhammad Babur, in particular, the deep implementation of "Baburnama" and the creation of his thesaurus are among such works.

Researching and translating of "Baburnama" began in the XV century, when the work was created. until now, there are more than ten manuscripts of "Baburnama", translations and publications were made in base of these manuscripts. "Baburnama" was translated 4 times into Persian and English, 2 times into German, French, Turkish, Urdu, 1 time into Dutch, Italian, Indian, Japanese, Polish, Spanish, Uighur, Kazakh. In the XIX century we can point to the works of, N. Ilminsky (1857), A. Vambery (1964), W. Erskine (1826), and Turkish scientists such as Beveridge (1905-1921), N. Samoylovish (1917) as an example.

In Central Asia, Babur's life and work have been recorded in dozens of creatures despite the fact that, on a new scientific basis, from the works of Yakubov, M. Shaykhzada, V. Zahidov in the articles and collections of prof. Fitrat, it continues seriously until now. Researching of the language features of "Baburnama", in particular, the grammatical structure, began in the second half of the XXI century.

The great work "Baburnama" brought him world fame, and this work included the development of issues more than his "Devon", "Mubayyin' or "Aruz Risola". is significant with the influence of the Persian language and literature in Khorasan, Movarunnahr, India, Afghanistan, Iran and Turkey in the XV-XVI centuries can be known through "Baburnama". By its own decision, "Baburnama" is a historical-memoir work, with important historical events and the names of hundreds of historical figures. Information about some of these anthropotoponyms are not often found in other historical works. Scientists has surprised with its uniqueness and important wealth of this work. In this work, the information about the status of the head of state and the leadership of the historical figures are shown, valuable information is provided in a multifaceted interpretation . While analyzing each historical figure and his activity, the author only examines their personality, character, attitude towards people and family members, character, reputation among the people, positive and negative sides.[1,56] Selects and interprets the most important aspects. In this respect, this work can be considered as a thesaurus. First, let's clarify the term "thesaurus". "Thesaurus" is derived from the Greek language and means "treasure". Thesaurus refers to dictionaries that provide complete information on a specific field. Thesaurus has several advantages over monolingual dictionaries. Because, in it, a certain word is covered in every way. With its help, along with receiving complete information about the word in electronic form, our time is also saved. Thesaurus dictionary reveals the synonym, antonym, etymology, homonym of each word and a series of words that can be combined with it. A thesaurus is primarily a maximally complete dictionary in which words and examples of their use in the text are explained. They are mainly created in electronic form and are a means of detailed description of the field of certain subjects.

Recently, thesauruses are provided with hyperlinks for the convenience of the user. In the dictionary-article dedicated to the term "thesaurus" listed in Wikipedia, which is a virtual encyclopedia, the hierarchy of semantic relations and associative links is clearly visible. This memoir contains the names of several historical figures. and description is given. For example, in the work, Babur writes about his father Umarshaikh Mirza: **His birth and genealogy**. He was born in Samarkand in 860 (1455). He was the fourth son of Sultan Abusaid Mirza. He was younger than Sultan Ahmed Mirza, Sultan Muhammad Mirza and Sultan Mahmud Mirza. Appearance: he was a short man with a round beard and a sallow face. He wore a very tight coat. So much so that when tying a belt, he would pull his stomach in and tie it, and if he let go after tying it, the ties would often break. It was bad to wear and eat. The turban was wrapped by a dastorpech (a special turban weaver).

In those days, turbans were the whole thing. They didn't pull it flat, but let the end hang down. In the summer, he wore a Mongolian burqa in places other than the court[2;46].

Character: He was a man of pure faith in the Hanafi sect. He would not leave the prayer for five hours. His life had fully completed his daily prayers. Hazrat Khwaja was a disciple of Ubaidullah. He was a frequent visitor to his conversations. He had good literacy. He used to read "Hamsatayn" (Hamsa by Nizami Ganjavi and Amir Khisrav Dehlavi), epics and histories. He often read Shahnama. He has a poetic talent, but he was not diligent in writing poetry. His justice was such that under the mountains on the eastern side of Andijan, a caravan of a thousand cattle coming from China was covered in such snow that only two people escaped. ....Battles and wars. He fought three times. First, with Yunus Khan, in a place called Takasekretku on the banks of the Sayhun River, on the north side of Andijan. ....Sultan Ahmed Mirza was once again defeated in a battle between Shahruhiya and Oratepa, in a city called Khavas[3,78].

Provinces: His father gave him the province of Fergana. Several times, Tashkent and Sayram were under Mirza's control. These cities were given to him by his brother Sultan Ahmad Mirzober. Shahrukhia was taken by fraud and used for a long time. .... Descendants: Mirza has three sons and five daughters. I am Zahiriddin Muhammad Babur, the eldest of Bari's sons. My mother is Kutlug Nigorkhan. Another son Jahangir was two years younger than Mirzomen. His mother, Fatima Sultan, was the daughter of one of the district governors of the Mongols. Another son was Nasir Mirzabo, his mother was a gunchachi named Umid from Andijan; he was four years younger than me. The eldest of the daughters, Khanzodabegim, was born from the same mother as me, she was five years older than me. When I took Samarkand for the second time, I went out with a person like Shaibani Khan in Saripul, we did not make mistakes in our zeal and enthusiasm as much as possible (it will be written about it in due time), but I was defeated and held the fortress for five months. We did not allow any deficiency in maintaining the fortress, strengthening it and leadership. The surrounding kings and begs did not give any help, I lost my spirit and left the city, the mother of one daughter, Ruqiya Sultanbegim, was Makhdum Sultanbegim, who was called Karakozbegim. ...Amirs: Khudoyberdi Temurtash. He is a descendant of the uncle of Herat governor Okbugabek. When Sultan Abusaid Mirza Jogi besieged Mirza in Shahruhiya, he gave the province of Ferghana to Umarshaikh Mirza and appointed Khudoyberdi Temurtosh as the governor. At that time, Khudoyberdi Temurtash was twenty-five years old, although he was young, his order, management and work behavior were

very good. A couple of years later, when Ibrahim Bekchik attacked the surroundings of Osh, Khudayberdi Temurtash took part in the war and was martyred... Another one was Khoja Husaynbek, a man and a poor man. According to the picture of that time, he sings songs well at parties... «Baburnama". is another example of a thesaurus. Because it contains valuable information about the trees, plants, grass, and flowers that grow in the mountainous regions from Ferghana to India.

Banana is one of the fruits of Hindustan. Arabs call it "mawz". The tree is not very tall, but it cannot even be called a tree. Something between a plant and a tree. The leaf is similar to the leaf of the marigold, but the length of the keila leaf is two inches, from the middle of the leaf comes a branch like a heart, the bud is on this branch, and the big bud is shaped like a sheep's heart, each bud is when the leaf opens, a row of six-seven flowers can be seen at the base of the leaf, and this row of flowers turns into a calyx. As this heart-shaped branch grows longer, the leaves of that big bud open and a row of cayla flowers appear. Each keila tree bears fruit only once. Keyla has two good features: one is that the skin peels off easily, and the other is that it does not have seeds and fibers, it is slightly longer and thinner than eggplant, and it is not very sweet. But Byangola keilas are very sweet. There is a very nice tree. Its broad, bright green leaves look beautiful. Another tree of Hindustan is taar. Taar's branches also grow only on top. They tie a pitcher like a date to the taar and drink its water. This water is called taari. This water is stronger than date water. On the branches of the taar is a single leaf up to half an old place after that, at the tip of the branch, thirty to forty leaves spread out in a bunch like a big paw. The length of these leaves is close to a centipede. A Hindu writes a letter on these leaves as if writing in a notebook.   Also, Hindustani people, if they do not have rings in the wide holes of their ears, they make rings from this leaf and hang them. They make rings from this taar leaf to wear in the ears and sell them in the markets. Its body is better and straighter than that of a palm tree. Another bird common in Hindustan is the locha. It is also called a buffalo. Five or six different colors from head to tail. His neck is like a pigeon's. It is the size of a kabki river (as big as a mountain), perhaps it is a river like Hindustan. Because the kabki river lives in the highest places of the mountains, it also lives on the mountain tops. This bird lives in the Nijrov mountains of Kabul province and in the mountains below. It does not occur above it. The Hindustani people narrated an interesting story: when winter came, they used to get down on their toads: if they flew them over the vineyard, then they would not be able to fly at all, so they caught them. The meat is very sweet and considered halal.

In India, there are only animals that are unique to that place. One of the wild animals is the elephant. Hindustani people call it "haati", it is in the borders of Kalpi province. Above it, wild elephants are more common as you go to the East. They bring elephants from those places. Thirty-forty people of Kurara and Manikpur are engaged in elephant hunting. The locals are responsible for every elephant before the government court. Elephant is a huge and intelligent animal. He understands what they say and does what he orders. The price is determined according to the size, it is sold according to the height. The bigger the elephant, the higher the price. They say that on some islands there are elephants that are ten years old. We did not meet any elephants taller than four or five years old here. An elephant eats and drinks only with its trunk. Without Khartoum, he cannot live. Khartoum has two large teeth on both sides of his upper jaw. It can knock down walls and trees with the force of its teeth. Fighting and any work that requires force is done with these teeth. These teeth are called oj. These teeth are highly prized by Hindustanis. An elephant has no hair. The importance of the elephant is great for the people of India. Every group (division, unit, detachment) in the army is accompanied by several elephants. An elephant has some good features: it can easily carry a heavy load through large and fast-flowing waters. Three or four elephants easily pull a pot cart (cart loaded with balls) that is pulled by four hundred to five hundred people. However, an elephant needs to eat a lot. One elephant eats the food of two camels.

Wonderful flowers grow in India. One of them is jaasun. Some Hindus call it "gadhal". It is a stem tree, not a weed. The body is slightly taller than the red rose bush, the color is lighter than the pomegranate flower, and the size of the red flower comes, but when the red flower opens after budding, it blooms only once; and when the jasun opens, another thin stalk grows out from the middle of its flower, and the flowers of this jasun open again. As a result, a unique diltartar flower appears. It looks very colorful and beautiful on the tree, it does not last long, it fades in a day. Four months in the rainy season is very good and open a lot, maybe most of the year. Even if there is so much, there is no smellBabur even observed the growth of 32-33 different types of tulips in one of the foothills of Kabul and wrote down information about some of them. The thesaurus of toponyms has particular importance in "Baburnama". In the Movarounnahr, Kabul and Indian parts of the work, we get valuable information about place names, their nature, flora, orchards, animals and birds, and weather.

Thesaurus of toponyms: Another one is Marginon. In the west of Andijan. From Andijan, it is seven kilometers away. A good town, rich in blessings: pomegranates and apricots are abundant and good. Birnav is a pomegranate: large, they say, with

a slightly sweet apricot taste due to its sweetness. It can be placed above Samnon pomegranates. There is another type of apricot, the seeds of which are removed and the pulp is dried. Game birds are good, and white deer are found near the town. Most of the famous fighters in Samarkand and Bukhara are from Marginon. The author of "Hidaya" is from Rushdon, Marginon. Another is Isfara, located at the foot of the mountain. There are running waters, saffron gardens and kindergartens. It is in the south-west of Marginon. There is a nine-lane road between Marginon and Isfara.

There are many fruit trees, but mostly almond trees are planted in the gardens. All its people speak Sort and Persian. There is a large stone among the hills on the south side of Isfara, which is called 'Sanginoyina (mirror stone)". It is about ten years long, sometimes as tall as a person, sometimes as low as a person's waist, and it reflects everything like a mirror. Isfara region consists of four sub-districts: Isfara, Vorukh, Sokh, and Hushyor. When Muhammad Shaybani Khan and Sultan Mahmud Khan injured Olacha Khan and took Tashkent , Shahrukhiya, I came to the Sokh and Hushyar foothills with this Shah.

In conclusion, this work of Babur has being attracted everyone's attention for centuries. This work is a perfect dictionary and a great treasure like thesauruses

REFERENCES

1.   Zahiriddin Muhammad Babur. Baburnama. -Tashkent: Teacher, 2008.
2.   2. Kholmanova Z. Computer Linguistics. Study guide. -Tashkent, 2019.
3.   Rahimov A. Fundamentals of computer linguistics. Study guide. -Tashkent, 2011.
4.   Xolmanova Z. Baburnoma-til qomusi.- Tashkent,2021.- B.323.

SYNTHESIS OF EPIC HISTORY AND SPIRIT OF CHARACTER

Shoira Isaeva

Candidate of Philology, Associate Professor TSPU

The number of works on historical themes in Uzbek literature, which is included in the treasury of world literature, is growing.In the near future, Uzbek prose will change its character, embracing reality in all its complexity and reflecting it in its own way, in its direction and contradictions.Most importantly, he synthesized the image of epic reality with the image of the psyche of the characters.In other words, the strengthening of the image of the psyche in the epic narrative, that is, the reflection of reality through the analytical depiction of the psyche of the characters, testifies to the growing development of psychodogism in modern Uzbek prose.It should be noted that the natural, unique combination of epic, lyrical and dramatic imagery in this process was due to the enrichment of the techniques and means of revealing the psyche of the characters more deeply, reasonably and convincingly.

The rise of the writer Assad Dilmurod in the field of spiritual images is associated with his deeper analysis and interpretation of the spiritual world of man as a writer and as a person. It is inevitable that a certain situation, a certain behavior and a certain mood will not always be the same in a person's activities.In a number of his works, the artist proved that this confidence is replaced by extraordinary, unpredictable situations and actions.At first glance, such cardinal changes in the human psyche seem to contradict the logic of the characters, but a thorough artistic analysis of their inner world, all the contradictions in the psyche leaves no room for the above-mentioned paradox, because the image of the psyche serves as evidence.As you know, writing a historical work has its own difficulties. Especially famous scientists, such as Abu Raikhan Beruni, Pahlavon Muhammad, Amir Temur, Sultan Hussein Baikaro, bear great responsibility for the life and work of the commanders before the creator, the historical and political environment in which they lived. , and, in general, scientific works.they are created. requires a lot of imagination. "Pahlavon Muhammad" Assad Dilmurod is somewhat imperfect in its composition due to the multifaceted conflict and its focus on the contradictions between a number of his characters.But if you look closely, it is easy to see that interpersonal contradictions in it are expressed through a variety of mental images.Comparing the psyche of the characters in certain contradictions, that is, using the parallelism of images to describe the struggle between them, the writer Pahlavon Muhammad and other works try to clearly and convincingly reveal the

heroes.Naturally, in this way, the main character is the main character, and the events of the work are often evaluated through the eyes of the characters.The main character has a complex character, he assesses each event or person through his own thoughts, through psychological analysis.For this reason, from the very first pages of the work, the writer turns to memory, which has risen to the level of the favorite method of depicting his psyche.This protagonist analyzes the past, every step he takes, and the people he knows, he knows, with whom he communicates.At the same time, this common thought process allows characters to enter the plot one at a time

IV-XI asrlarda Vizantiyada feodal munosabatlarning vujudga kelishi va shakllanishi

Qurbonova Quzratoy
Mamayusupov Ismat
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqola IV-XI asrlarda Vizantiyadagi feodal munosabatlarning vujudga kelishi va shakllanishi, digestlar vavarvarlar haqida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Romeya, varvar, ''fuqaro huquqlari to'plami'', digestlar, institutsiyalar, novellalar, nika, dimlar,

Vizantiya davlati IV asrning oxirida Rim imperiyasidan uning sharqiy qismining ajralib chiqishi natijasida tashkil topdi va ming yildan ortiq, ya'ni 1453 yilda uning poytaxti - Konstantinopol turklar tomonidan bosib olungunga qadar yashadi.

III asr oxirlariga kelib quldorlikni inqirozi natijasida Rim imperiyasini Sharqiy qismi uning g'arbiy qismidan iqtisodiy va siyosiy jihatdan ajraldi. Rim imperiyasi poytaxtining 330 yili Konstantinopolga ko'chirilishi mamlakat sharqining iqtisodiy-madaniy jihatdar ustunligini tan olish edi. Sharqiy viloyatlar tarkibiga qulay iqlimli, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik hududlari kirgan. Uning tabiiy boyliklari (oltin, kumush, mis, temir), neft manbalari, marmar konlari va boshqa mineral zahiralar ham mo'l bo'lgan. Qolaversa, Bolqon yarim oroli, Kichik Osiyo, Shimoliy Mesopatamiya, Suriya, Falastin, Misr, shuningdek, Krit, Kipr, Rodos va boshqa orollarda zich aholi joylashgan edi.

Sharqiy Rim imperiyasini, qadimgi yunon polisi Megaraning koloniyasi Vizantiy nomidan Vizantiya deb atashadi. Vizantiy imperator Konstantin tomonidan 320-330 yillari qayta qurilib, poytaxt uning nomini olgan Konstantinopolga o'tkaziladi. «Rim imperiyasi» degan nom bora-bora yo'qolib, «Vizantiya imperiyasi» degan nom yuritila boshladi (imperiyaning poytaxti qadimgi vaqtda Vizantiya deb atalgan bo'lib, 330 yilda Konstantin Buyuk unga Konstantinopol deb nom bergan edi). Bu shaharni poytaxt sifatida tanlanishiga sabab, uning harbiy-strategik jihatdan qulay bo'lganligi va dunyoning muhim savdo yo'lida joylashganligi edi. Konstantinopol imperiyaning yirik savdo va hunarmandchilik markazi bo'lib, bu shaharga dunyoning turli burchaklaridan savdogarlar kelardi. Imperator Konstantin vafotidan oldin vasiyat qilib, uning o'g'li Gonariyga imperiyani g'arbiy qismini, ikkinchi o'g'li Arkadiyga esa sharqiy qismini qoldirdi.

395 yilda G'arbiy Rim imperiyasidan uzil-kesil ajralib chiqqan Sharqiy Rim imperiyasi hududiga quyidagi yerlar kirar edi: Bolqon yarim oroli, Kichik Osiyo, Egey dengizi orollari, Suriya, Falastin, Misr va Shimoliy Qora dengiz hududlari kirar edi. Uning hududida greklar, frakiyaliklar, illiriylar, yahudiylar, suriyaliklar, armanlar yashar edi. Imperiyaning bu qismi aholisining ko'pchiligi yunon tilli bo'lib, ular o'zlarini romeylar, davlatlarini esa Romey (Rim) deb nomlashgan. Lotin tili yana uzoq vaqtgacha Sharqiy imperiyaning davlat tili bo'lib qoldi. Lekin Sharqda xalq grek tilida gaplashardi. Ba'zi olimlar, Vizantiya imperiyasi 395 yilda, ya'ni Feodosiy I vafot etgach, imperiya uning o'g'illari Arkadiy va Gonoriylar o'rtasida taqsimlanib, sharqiy yarmi Konstantinopol shahri bilan birga Arkadiyga o'tgan vaqtda tuzilgan deb hisoblaydilar.

IV-VI asrlarda Vizantiya imperiyasi o'sha davrdagi xalqaro aloqalarda muhim o'ringa ega bo'lgan eng yirik davlat edi. U Eron, Qora dengiz va Kavkaz orti mamlakatlari bilan savdo aloqalarini olib borar edi. Bu davrda Vizantiya Italiya, Ispaniya va Galliya kabi mamlakatlar bilan ham savdo aloqalarini olib borgan.

 Imperiyaning turli viloyatlaridagi qulay shart-sharoit iqtisodiyotning muhim omili bo'lgan. O'rta Yer dengizi sohilidagi Frakiya, Makedoniya, Fessaliya, Pellopones pasttekisliklarida boshoqli don, zaytun, uzum, mevalar yetishtirilgan. Misr qadimdan o'zining yuksak hosilli yerlari bilan shuhrat qozongan. Kichik Osiyoning dashtlari, Suriya cho'llarida chorvachilik rivojlangan. Bolqon yarim orolining Konstantinopol tomon tog' yon bag'irlarida, qirlarda, o'rmon va o'tloqlarda chorva mollari boqilgan.

 Sharqiy imperiya xo'jaliklari G'arbiy Rimga nisbatan qullar mehnatidan kam foydalanilgan. Sharqiy Rimdagi ishlab chiqarish IV asrda erkin jamoa a'zolari – dehqonlar va kolonlar mehnatiga asoslangan. Yerga biriktirilgan kolonlar, o'z xo'jayinlaridan tashqari, davlat hisobiga ham majburiyatlar o'tashgan.

Sharqdagi yirik shaharlar: Konstantinopol, Fessalonika, Efes, Antioxiya, Laodikiya, Bayrut, Damashq va Iskandariyalar savdo-hunarmandchilik markazlari bo'lgan. Suriyaning zig'irpoyadan to'qilgan movut gazlamalari, Misrning papiruslari, Bayrutning chetdan keltirilgan ipakdan to'qilgan matolari, Konstantinopolning zeb-ziynat buyumlari uzoq o'lkalarda ham yuksak qadrlangan.

Polisni *(polis.yunon.polis-shahar-davlat)* boshqarish shaharlarning quldor zodagonlari-kuriallar qo'lida bo'lgan. Ular jamoatchilik binolarini qurish, ta'mirlash, bayramlar va tomoshalar tashkil qilish, kambag'allarni ozuqa mahsulotlari bilan bepul ta'minlashni tashkil qilishlari lozim edi. Kuriallar soliqlarni yig'ishga o'z mol-mulklari bilan javobgar bo'lishgan.

Viloyatlar boshqaruvining xususiyati, fuqarolik va harbiy hokimiyatining alohida ekanligi edi. Hokim fuqarolik hokimiyatini boshqarsa, harbiy qo'shinga sarkardalar yetakchilik qilgan. Xalq lashkari IV asrdan o'z ahamiyatini yo'qotib, yollanma qo'shin va varvarlardan jalb qilingan ittifoqchilar mavqei o'sib borgan.

Davlat aholidan turli soliqlar undirgan. Dehqonlardan olinadigan oziq-ovqat solig'i yerning maydoni, unumdorligiga qarab belgilangan. Zodagonlarning ko'plab yer-mulklari soliqlardan ozod qilingan. Vizantiya soliq tizimining o'ziga xos jihatlaridan biri, epibole *(o'tkazish)* bo'lib, unga ko'ra, qochoq kolon yoki ijarador yeri qo'shnilariga majburan o'tkazilgan bo'lib, ular barcha soliqlarni to'lashlari shart edi. Har 15 yilda soliq to'lovchilar mulkiy holati ro'yxatdan o'tkazilib, soliq miqdori o'sib borgan.

Davlat hisobiga bajariladigan majburiyatlar ham aholiga qiyinchilik tug'dirgan. Yirik shaharlarning oziq-ovqat mahsulotlari ta'minoti, amaldor va jangchilarni ta'minlash, ularga transport vositalari, ot, mol, yem-xashak yetkazib turish, yo'llar, ko'priklar, qal'alar, kemalar qurishda va ta'mirlash ishlarida ishtirok etish aholi zimmasida bo'lgan.

Shaharliklar pul solig'ini to'laganlar. Davlat daromadlarining ko'p qismini savdo bojlari tashkil qilgan. Boj solig'i xorijdan keltirilayotgan mollar narxining 1/8 (16,5%) tashkil qilgan.

Imperiyaga varvarlarning dastlabki bosqinlari IV asrning so'nggi choragida boshlandi. Davlat soliqlaridan bezgan mahalliy aholi vestgotlar bosqiniga befarq qaraydi. Shaharliklar talonchiliklar va savdoning torayishidan xavotirga tushib, varvarlarga qarshilik ko'rsatadilar. Imperator Valent qo'shinining 378 yilgi mag'lubiyatidan so'ng vestgotlar Meziyaga joylashib, varvarlar yo'lboshchilari qirol saroyi va mahalliy boshqaruvda muhim o'rin tuta boshlaydi.

Vestgotlar yo'lboshchisi Alarix IV asr oxirida isyon ko'tarib, Konstantinopoldan Pelloponesga qadar hududlarni talon-taroj qiladi. Varvarlarning Kichik Osiyodagi isyoniga qullar va kolonlarning qo'shilishi bu harakatga xavfliroq tus beradi. Konstantinopol dimlari bunga javoban 400 yili shahar darvozalarini yopib, poytaxtdagi 7 mingga yaqin yollanma got jangchilarini qirib tashlaydilar. Qirg'indan jon saqlagan yollanma askarlar Dunay ortiga o'tib ketadilar. Imperator, Alarix bilan kelishib, uni G'arbiy Rim tomonga yo'llashga erishadi.

 Bolqon yarim oroli V asrning birinchi yarmida varvarlar, xunnlar, ularga bo'ysungan qabilalarning yangi hujumlariga uchraydi. Xunnlar ittifoqi parchalanganidan so'ng, ostgotlar va boshqa german qabilalari hujumlari boshlanadi. Ostgotlar yo'lboshchisi Teodorix 470-480 yillar boshlarida Bolqonni larzaga solib turganida, uni imperiyadan arang surib chiqarishadi. Rasmiy

provaslaviye (chin e'tiqod) cherkovining Iso payg'ambarning ilohiy va insoniy tabiati haqidagi ta'limotiga qarama-qarshi nestorianlik g'oyasi vujudga keladi. Unda payg'ambarning faqat insoniy jihati tan olingan. Yana bir diniy ta'limot-monofisitlikda esa Isoning faqat ilohiy xususiyati tan olinadi. Mamlakatdagi diniy nizolar hukmron toifa uchun siyosiy kurash usuli bo'lsa, mehnatkash aholi aksincha majburiy mehnatdan qutulish uchun ularda ishtirok etadi.

Yustinian I davrida Vizantiya. VI asrda imperator Yustinian I hukmronlik qilgan vaqtda eng katta muvaffaqiyatga erishdi. Yustinian 527—565 yillarda podsholik qildi. U yuksak ma'lumotli, mehnatsevar, qat'iyatli, qattiqqo'l va o'z so'zidan qaytmaydigan imperator bo'lgan. U qulchilikni mustahkamlab, imperiyani avvalgi chegaralarida tiklashni maqsad qilib qo'ygan. Uning ichki siyosatidagi asosiy maqsadi, yer-mulklar va quldorlarning hunarmandchilik ustaxonalarini arzon ishchi kuchi bilan ta'minlab, xazinani to'xtovsiz oqib keladigan daromad bilan to'ldirib turish edi. Yustinian chiqargan qonunlarga binoan, kolonlarni ularning qachon qochib ketganligidan qat'iy nazar, o'z yerlariga qaytarish, yerga kolonlarning va erkin ijarachilarning farzandlarini ham biriktirib qo'yish tartibi belgilangan.

U o'zidan oldin o'tgan Feodosiy sulolasi o'rniga kelgan yangi sulolaning vakili edi. Uning amakisi imperator Yustin I (518-527 yillarda boshqargan) ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, illiriyalik savodsiz bir dehqon bo'lib, harbiy xizmatda shuhrat qozonganda, armiya uni imperator qilib ko'targan. Vizantiya varvarlarning (germanlar, slavyanlar va boshqalarning) hujumini qaytarib, o'zi ularga qarshi hujumga o'tgan bir davrda Yustinian imperatorlik qila boshlagan va 527-565 yillarda boshqardi. Yustinian o'z oldiga imperiyaning ilgarigi g'arbiy chegaralarini tiklashni vazifa qilib qo'ydi. Ilgarigi G'arbiy imperiya hududida yaqindagina vujudga kelgan varvar qirolliklarining tarqoq va kuchsizligidan foydalanib, Yustinian o'z dasturini qisman amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi. Uning sarkardalari Velizariy va Narses Shimoliy Afrikadagi Vandal qirolligini (534 y.), Italiyadagi Ostgot qirolligini (555 y.) va Ispaniyaning janubiy qirg'og'ini (Betikani) bosib oldi.

Yustinian o'z davlatining shimoliy chegaralarini qisman xunnlar hujumidan, qisman slavyanlar siquvidan himoya qilishga juda zo'r berdi. Bolqon yarim orolida uch qator qal'alar qurildi. Ammo bu mudofaa to'siqlari slavyanlarning Bolqon yarim oroliga qarab siljishlarini to'xtata olmadi. Slavyanlarning ko'pini imperiya yarim orolga ittifoqchilar sifatida joylashtirishga majbur bo'ldi. Boshqalari hatto Bolqon yarim orolining janubida — Makedoniyaga va Egey dengizi bo'ylariga kolonist-yer egalari sifatida joylashtirildi. Yustinian imperiyaning Qrimning janubiy qirg'og'idagi va Kavkaz ortidagi yerlarini qaytarib oldi. Lekin u Mesopotamiyaning

bir qismini Eron shohiga berishga va sulh tuzilganidan keyin unga katta-katta pul to'lab turishga majbur bo'ldi.

Yustinian podsholik qilgan davrda Vizantiyaning ichki hayotida juda katta voqealar yuz berdi. U o'z podsholigining boshlanish paytidayoq Rim imperatorlarining ilgari nashr qilingan hamma qonunlarini bir qilib to'plab bosib chiqarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Eng atoqli yuristlardan iborat ikki komissiya Tribonian rahbarligida Rim qonunlarini to'plab tartibga solish ustida juda katta ish olib bordi. Bu komissiyalarning 528—534 yillar mobaynida olib borgan ishi natijasida «Fuqarolik qonunlari to'plami» (Corpus furis civilis) vujudga keltirildi, bu to'plam Rim imperiyasidagi butun qonunlarni yakunlovchi eng katta yuridik yodgorlik bo'ldi. To'plam to'rt qismdan iborat edi: 1) 12 tomlik Yustinian kodeksi — Rim imperatorlarining qonunlari to'plami; 2) Digestlar — bu 50 kitob bo'lib, Rim qonunlarini sharhlagan mashhur rim yuristlarining asarlaridan olingan parchalarni o'z ichiga olgan edi; 3) Institusiyalar — sudyalar va o'quvchi-yuristlar uchun qisqacha yuridik qo'llanma (bir kitob); 4) Novellalar — Yustinianning kodeksiga kirmagan yangi qonunlaridan (535 yildan to o'z podsholigining oxirigacha) iborat edi.

Yustinian qonunlari to'plami mazmunan rim huquqining bayoni bo'lishi bilan birga, ayni paytda vizantiya huquqining ba'zi o'ziga xos xususiyatlarini ham aks ettiradi. To'plamning oxirgi qismi lotin tilida emas, yunon tilida yozilib, Yustinianning 160 ga yaqin konstitusiyalarini o'z ichiga oldi va ular ma'lum darajada o'sha vaqtdagi vizantiya jamiyatining o'ziga xos shart-sharoitlarini aks ettirdi.

Vizantiya yuristlari klassik davrdagi o'z o'tmishdoshlaridan farq qi-lib, huquqiy normalarni bayon qilishda eskirgan usullardan foydalanmas-likka, ularni oddiy va aniq ifoda qilishga, iboralarga tushuntirishlar berishga, sodda va tushunarli tushunchalar ishlab chiqishga harakat qildilar.

Yustinianning qonunlar to'plamida, bir tomondan quldorlik tuzumi alomatlari («barcha odamlar erkin kishilarga va qullarga bo'linadi») va ikkinchi tomondan, vujudga kelayotgan feodal munosabatlarniig alomatlari (kolonat to'g'risidagi qo-nunlar, qullarni cheklanmagan miqyosda bo'shatish to'g'risidagi yangi qonunlar) aks etdi. To'plamda imperator hokimiyati absolyut hokimiyat degan g'oya aniq bayon qilindi.

Xulosa

Yustinian og'ir talofatlarga qaramay, Rim imperiyasini qayta tiklash uchun urushlarni boshlaydi. Shimoliy Afrikadagi Alan-Vandal qirolligi 533-534 yillari, Ostgot qirolligi 535-555 yillari mag'lub etilib Italiya va Sitsiliya, 554 yili Janubi-sharqiy Ispaniya, Sardiniya va Korsika orollari egallandi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Эшов Б. Цивилизация тизимида илк шаҳарлар. Тошкент, 2005.

2. Островский А.В. История цивилизаций. Санкт-Петербург. 2000

3. Яковец Ю.В. История цивилизаций. М., 1997.

4. "Древние цивилизации". Под общей редакцией Бангарда-Левина Г. М. М., 1989.

5. "Древнеиндийская философия. Начальный период" М., 1963.

6. "Мифология древнего мира". М., 1977.

FRANSUZ TILIDAGI TURIZMGA OID ATAMALAR VA ULARNING O'ZBEK TILIDAGI TARJIMASI

Rajabova Maftuna Bahramovna
O'zbekiston Jahon tillar universiteti,
Roman-german filologiyasi fakulteti,
Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
+99897 477 26 00
diyorbek230212@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasining fransuz va o'zbek terminologik tizimining qisqacha qiyosiy tahlili ko'rib chiqilgan. Terminlarning tuzilishiga ko'ra qoliplari va atamalarning shakllanishi jarayonida ularning unumdorligi tahlil qilingan va ochib berilgan. Fransuz tilidagi turizmga oid atamalar va ularning o'zbek tilidagi tarjimasi haqida qisqacha bayon etilgan.

Kalit so'zlar: turizm, terminologiya, klassifikatsiya, izoh, tushuncha, kasb, atama, demokratiya, tizim.

Аннотация: В данной статье рассмотрен краткий сравнительный анализ французской и узбекской терминологических систем в сфере туризма. По структуре терминов анализируются и выявляются их закономерности и продуктивность в процессе терминообразования. Кратко описаны французские туристические термины и их узбекский перевод.

Ключевые слова: туризм, терминология, классификация, объяснение, понятие, профессия, термин, демократия, система.

Abstract: This article discusses a brief comparative analysis of the French and Uzbek terminological systems in the field of tourism. Based on the structure of terms, their patterns and productivity in the process of term formation are analyzed and identified. French tourist terms and their Uzbek translation are briefly described.

Key words: tourism, terminology, classification, explanation, concept, profession, term, democracy, system.

KIRISH Ma'lumki, har bir fan sohasining rivojlanishi va takomillashuv darajasi shu soha terminologiyasining qay darajada taraqqiy etgani, shuningdek, tartibga solingani bilan ham uzviy bog'liqdir. Atamalarning ishlanmaganligi va tartibga solinmaganligi nutq uslubiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Turizm (fransuzcha: our — sayr, sayohat), sayyohlik — sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda

borilgan joyda (mamlakatda) haq toʻlanadigan faoliyat bilan shugʻullanmagan holda uzogʻi bilan 1 yil muddatga joʻnab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi.

ASOSIY QISM

Turizmning tarixi XIX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab Angliyadan Fransiyaga uyushgan sayyohlik tashkil etilgan (1815). Turizmning asoschisi hisoblanmish ingliz ruhoniysi Tomas Kuk 1843-yilda 1-temir yoʻl sayyohligini tashkil qildi. Shundan soʻng u oʻzining xususiy turistik korxonasini tuzdi va 1866-yilda dastlabki sayyohlik guruxlari AQShga joʻnatildi. Sharqda arab sayyohi Ibn Battuta 21 yoshida sayohatini boshlab, deyarli barcha Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarini piyoda kezib chiqdi.

XX asrning 30-yillarida fransuz tadqiqotchilarining eʻtibori turistik oqimlarni oʻrganish va tushunishga qaratilgan. Grenobldagi Alp mintaqasi geografiya instituti xodimi J.Miege Savoydagi sayyohlik amaliyotini tahlil qildi. 50-yillarda turizmni oʻrganish usullari sezilarli darajada kengaytirildi, turistik talab masalalari, turizmning iqtisodiy jihatlari, xalqaro turizmning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan koʻplab ishlar paydo boʻldi. Olimlar sotsiologik usullardan (anketalardan) faol foydalana boshladilar. 60-yillarning boshlarida turizmning nazariy va amaliy muammolari quyidagi ixtisoslashgan muassasalar tomonidan tahlil qilindi: Parij universitetining turizm boʻyicha oliy taʼlim markazi va Ay-en-Provansdagi turizmni oʻrganish markazi. Parij markazi xodimlari eʻtiborni turizmni hududiy tashkil etishga qaratdi. Ay-enProvansdagi Turistlarning hordiq chiqarish markazi olimi Liden keng koʻlamli nashriyot faoliyatini amalga oshirdi. Ushbu muassasa tadqiqotchilari tomonidan "Tadqiqot va xotiralar" va "Turizmga oid daftarlar" turkumlarida turizmga oid fundamental asarlar hozirgacha chop etilmoqda. P.Deferi turizmning yetakchi fransuz nazariyotchisi hisoblanadi. U milliy turizm siyosatining asosiy tamoyillarini shakllantirdi, iqtisodiy rivojlanish sharoitida turizm salohiyatidan foydalanish va turizmni ilmiy tushunishni iqtisodiy amaliyot bilan uygʻunlashtirish muammolarini oʻrgandi. [1]

METOD VA TAHLILLAR

Turizmga oid terminlar tizimlarini aniqroq tavsiflash uchun ushbu fan sohasidagi atamalarning tasnifini ishlab chiqish kerak va shunga koʻra, tasnif asoslarini tanlash kerak. Bunday asoslardan biri soʻzning maʻlum bir faoliyat sohasiga bogʻliqligi boʻlishi mumkin. Oldin ishlab chiqilgan turizmga oid atamalarning tasniflari toʻgʻrisida koʻproq toʻxtalib oʻtamiz.

"Soʻz" tushunchasiga berilgan koʻplab taʻriflarning hammasini mukammal taʻrif deb boʻlmaydi. A.A.Reformatskiyning fikricha, "soʻz – tilning konkret birligi". Bu fikrga koʻra, inson hayotining dastlabki bosqichlarida tilni soʻzlar koʻrinishida

o'rganadi. So'z va uning tushunchasining inson ongida hosil bo'lishi osonligi bilan asoslanadi. Turizm terminlarining nazariy masalalari bilan jahon tilshunosligining bir qancha tadqiqotchilari shug'ullanganlar. Jumladan, T.G.Pshenkina, B.X.Rahmatullaeva, G.I.Toirova, Z.X.Utesheva, V.V.Xayrullinlar terminlar bo'yicha tadqiqot olib borgan. Termin so'zlardan foydalanishdan asosiy maqsad shuki – terminning yuqori aniqlikka ega bo'lishi va polisemiya, ya'ni ko'pma'nolilikdan holi bo'lishidir. Chunki terminlarda polisemiya hodisasi kuzatilsa foydalanuvchilar ongida bir xil assosiatsiyalar hosil bo'lib qolishi mumkin. Har bir soha, kasb va faoliyatlarning o'z terminologiyasi mavjud. Termin so'ziga aniq ta'rif beradigan bo'lsak, "biror kasb yoki sohaga doir tushunchani anglatadigan, lug'aviy mundarijasi aniq ta'riflangan, ishlatilish ma'lum doira bilan chegaralangan leksemaga termin deyiladi". [2]

Turizm terminlarining amaliyotga kiritilishiga qo'yiladigan mezonlarining dastlabki yo'riqnomasi Birlashgan millatlar tashkilotining 1976-yildagi sammitida qabul qilingan. Hozirgi kunda kiritilayotgan yangi terminlar 1991-yilda Ottavada o'tkazilgan konferensiyada qabul qilingan mezonlar asosida amaliyotga tadqiq etilmoqda.[3]

Unga ko'ra:

1) izoh, klassifikatsiyalar rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarni hisobga olgan holda umumjahon amaliy qo'llanish doirasiga ega bo'lishi;

2) oddiylik, aniqlikka urg'u berish;

3) ular imkon qadar demokratiya, transport tizimi, biznes, xalqaro migratsiya, to'lovlar balansi, milliy hisob tizimlari kabi hozirgi xalqaro standart va klassifikatsiyalar bilan hamohang bo'lishi;

4) amaliy turizm so'rovnoma, tadqiqotlarda o'lchab bo'ladigan raqamlarda ifodalash mumkin bo'lgan darajada sodda bo'lishi lozim. S. Bagirovaning ta'kidlashiga ko'ra: "Turizm – jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda, ya'ni mamlakatda haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi, ya'ni sayohat qilishidir".[4]

Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishga oid ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasining 18-iyul 2019 yildagi O'RQ-549-son "Turizm to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada

rivojlantirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish to'g'risida"gi 2022 yil 15-yanvardagi PF-52- son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 2022-yil 18-fevraldagi PQ-135-sonli qaroriga muvofiq bir qator dastur, loyiha va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. [5]

Turizm terminologiyasi ham o'zbek terminologik tizimida alohida o'rin egallaydi, biroq bu terminologik tizim hali nazariy jihatdan tadqiq etilmagan. O'tgan asrda turli sohalarga oid terminlar o'zbek tiliga rus tili orqali Yevropa tillaridan o'zlashgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, to'g'ridan-to'g'ri chet tillaridan o'zlashmoqda. Ma'lumki, xalqaro terminlarda yunon va lotin tiliga taalluqli terminelementlar ko'p kuzatiladi.

Turizm terminlarida terminelementlar mavjudligini tekshirish ham nazariy masalardan biri hisoblanadi. Rus tilshunosligida turizm terminologiyasi bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilganini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, E.T. Belan, V.L. Vinogradova tomonidan dissertatsiyalar himoya qilingan. Shuningdek, turizm terminologiyasiga bo'yicha ilmiy kuzatishlar olib borilgan. Terminlar sinonimiyasi ma'lum fan va sohalarning to'xtovsiz rivojlanishi, yangi-yangi tushunchalarning, binobarin, terminlarning paydo bo'lishi mahsulidir. Biroq ilmiy uslubda, fanda terminlarning aniqligiga ehtiyoj kuchli bo'lgani sababli terminlar dubletligidan qochish uchun tabiiy intilish sezilib turadi. Shunga ko'ra terminologiyaga bag'ishlangan barcha adabiyotlarda terminlar sinonimiyasi terminologiyaning jiddiy nuqsoni deb ko'rsatiladi. [6]

NATIJALAR

Fransuz olimlari tadqiqotlari doirasida quyidagilar aniqlangan:

1.Fransuz va o'zbek tillaridagi turistik terminlar mazkur terminologik sistema chegarasida xizmat qiladi, turistik faoliyat va turizm sohasidagi tushunchalarni ataydi ya'ni nomlaydi, shunga ko'ra semantik terminologik maydon, mikromaydon va mavzuiy guruhlarga ajratiladi.

2. Turizm terminosistemasining shakllanishi fransuz va o'zbek tillarida har turda kechgan. Fransuz tilidagi turizm terminologiyasi mustahkam shakllangan, o'zbek tilidagi esa rivojlanayotgan sistemadir.

3. Fransuz tili turizm terminosistemasidagi maksimal yaqinlik termin hosil bo'lishida qatnashuvchi morfemik asosda kuzatiladi. Termin hosil bo'lishining sermahsul usuli har ikki til uchun ham suffiksatsiya va qo'shma so'z hosil qilishdir. Terminologik birikmadagi asos so'z har ikki til modellarida ham ot turkumiga mansubdir.

Masalan, *la classe touristique* – туристический класс – turistik klass (ot+sifat) (sifat + ot) (sifat + ot) *l'oenotourisme*– винный туризм – vino turizmi (ot) (sifat + ot) (ot+ot) *le tourisme de services*– деловой туризм – xizmat turizmi (ot+ot) (sifat + ot) (ot+ot) *le tourisme publicitaire* – рекламный туризм – reklama turizmi (ot+ot) (sifat + ot) (ot+ot) la nourriture végétarienne – вегетарианская еда – vegetariancha ovqat (ot+sifat) (sifat + ot) (sifat + ot) *le clé d'étage* – этажный ключ – qavat kaliti (ot+ot) (sifat + ot) (ot+ot)

4. Fransuz va o'zbek tillari omonimiya va antonimiya kabi leksik-semantik munosablarda bir xillikka ega emas. Fransuz va ingliz tillarida esa termin-omonim va termin-sinonimlar o'rtasidagi foizlar nisbati bir xil ko'rsatkichga yaqin. Ular o'rtasidagi asosiy farq ingliz tilida modellashtirilgan omonimlarning mavjudligidir. [7]

XULOSA

Turizmning bir qancha turlari mavjudligi "turizm" tarkibli terminlarning ham mavjud bo'lishini o'z-o'zidan taqozo qiladi: *bolalar turizmi (tourisme d'enfants), ekstremal turizm (tourisme ecstrimal), gastronomik turizm (tourisme gastronomique), harbiy turizm (tourisme militaire), havaskorlik turizmi (tourisme amateur), ichki turizm (tourisme domestique), ijtimoiy turizm (tourisme social), individual turizm (tourisme individual), karvon turizmi (tourisme caravanier), kongress turizmi (tourisme de congrès), madaniy turizm (tourisme culturel), milliy turizm (tourisme national), muzey turizmi (tourisme museal), nikoh turizmi (tourisme matrimonial), reklama turizmi (tourisme publicitaire), sanoat turizmi (tourisme industriel), sarguzashtli turizm (tourisme d'aventure), sog'lomlashtirish turizmi (tourisme de santé), tog' turizmi (tourisme de montagne), kichik turizm (petit tourisme)* zonalari kabi. "Tur", "nomer", "klass" terminlari ishtirokida yuzaga kelgan maxsus leksik birliklar, asosan, turistik xizmat ko'rsatish sohasida faol iste'molda bo'lgan terminlardir: tur militsiyasi, tur paket, tur tashkilotchisi, tur yo'llanma; bir o'rinli nomer, ikki o'rinli nomer. Turizm terminologiyasi ochiq xarakterda bo'lib, takibining tez boyishi bilan boshqa terminologik tizimlardan farq qiladi. Jahon tishunosligida turizm terminologiyasi bo'yicha qiyosiy xarakterdagi ilmiy tadqiqot ishlarining olib borilganligi ularda ushbu soha terminologiyasi ma'lum ma'noda tartibga solinganligi, yangi paydo bo'layotgan tushunchalarni nomlashda ma'lum tamoyillar ishab chiqilganidan dalolat beradi. O'zbek tilida mavjud turistik terminlarni tartibga solish, termin tanlash va uni muomalaga kiritish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish soha oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.   H.R.Hamroyev "Turizmologiya" "KAMOLOT" nashriyoti Buxoro – 2023

2.   Reformatskiy A.A. Vvedenie v yazikovedenie. – Moskva, 1962. – 54

3.   United Nations. Recommendations on tourism statistics, New York, 1994. – P.20.

4.   Bagirova S. Turizm terminlarining o'zbek, rus va ispan tillarida qo'llanishi// Zamonaviy roman-german tilshunosligi va tillarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Samarqand, 2018. – B. 139.

5.   Jurayevna, Toshboyeva Laylo. "INGLIZ VA O 'ZBEK TILLARIDA TURIZM TERMINLARINING CHOG 'ISHTIRMA TADQIQI VA TARJIMA MUAMMOLARI." *Современное образование (Узбекистан)* 3 (124) (2023): 3-12.

6.   Kuchqarova, Gavharoy. "TURIZM TERMINOLOGIYASINING NAZARIY MASALALARI VA TADQIQI." *Academic research in educational sciences* 3.2 (2022): 520-526.

7.   https://fr.wiktionary.org/wiki/Cat%C3%A9gorie:Lexique_en_fran%C3%A7ais_du_tourisme

Abu Ali ibn Sino buyuk qomusiy alloma

Jo'rayeva Lobar
Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino hayot yo'li , ilmiy faoliyati, asarlari haqida fikr mulohaza yuritilgan.
Kalit so'zlar: Ibn Sino, Avitsenna, Shayx ur rais, Husayn

Kirish To'liq ismi – Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Hasan ibn Ali bo'lib, Abu Ali, deb chaqirilgan. Xalq orasida "Ibn Sino", Yevropada "Avitsenna", allomalar orasida esa "Shayxurrais" nomlari bilan mashhur bo'lgan. 980-yil avgust oyida Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan. Ibn Sinoning otasi Abdulloh Balx shahridan bo'lib, somoniylar amiri Nuh ibn Mansur (976-997) davrida Buxoroga ko'chib kelgan. Afshonalik Sitora ismli qizga uylanib, ikki o'g'il farzand ko'rgan. O'g'illarining kattasi Husayn (Ibn Sino), kenjasi Mahmud bo'lgan. Husayn besh yoshidan ta'lim ola boshlagan. To'qqiz yoshida Qur'oni karimni to'liq yod olib, odob-axloq darslarini mukammal o'zlashtirib borgan. Matematika bilan ham shug'ullangan. Arab adabiyotiga oid kitoblarni o'qib chiqqan. Uning ilmga kuchli ishtiyoqi va zo'r qobiliyati hammani hayratga solgan. Ibn Sinoning shogirdi Abu Ubayd Juzjoniyning yozishicha, alloma jismonan juda baquvvat bo'lsa-da, shaharma-shahar yurishi, kecha-kunduz tinim bilmay ishlashi va bir necha bor ta'qib qilinishi, hatto hibsda yotishi olimning salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Oqibatda qulanj (kolit) kasalligiga chalingan. Alloma jahon ilm-fani va madaniyatida o'chmas iz qoldirgan. Zamondoshlari Ibn Sinoni "Sharaful mulk" ("Saltanat sharafi"), "Hujjatul haq" ("Haqiqat tasdig'i"), "Hakim vazir" ("Donishmand vazir") deb atagan. Isfahon hokimi Alouddavlaning Hamadonga har biy yurishi vaqtida Ibn Sino qattiq betob ligiga qaramay, u bilan birga safarga chiqadi. Yo'lda ahvoli yomonlashib, 1037-yili Hamadonda 57 yoshida vafot etadi. Ibn Sino ilk ustozi Abu Abdulloh Notiliydan mantiq, muhandislik va astronomiya ilmlarini o'rgan gan. U shogirdining qobiliyatiga yuqori baho berib, ya nada chuqurroq ilm olishga undagan. Abu Ali tinmay mutolaa qilib, ilmning turli sohalarini o'zlashtirishga kirishadi. U musiqa, optika, kimyo, fiqh kabi fanlarni o'rganadi, xususan, tabobat ilmiga alohida mehr qo'yadi va bu sohada tez kamol topa boshlaydi. Ibn Sinoning tib ilmida yuksak darajaga erishishida buxorolik tabib Abu Mansur Hasan ibn Nuh Qumriyning xizmati katta bo'lgan. Ibn Sino undan tabobatni o'rganib, ilmning ko'p sirlariga ega bo'lgan. Allomaning o'zi bunday hikoya qiladi: "Keyinchalik tib ilmi bilan shug'ullangim kelib qoldi. Unga oid

kitoblarni o'qishga kirishdim. Tib o'zi qiyin ilmlardan emas edi. Shu sababli qisqa muddat ichida bu sohada shunday natijalarga erishdimki, hatto fozil tabiblar ham huzurimga kelib, mendan tib ilmini o'rganadigan bo'ldi". Ibn Sino juda tirishqoq, o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishmaguncha tinchimaydigan odam bo'lgan. Allomaning o'zi bunday yozadi: "O'sha kezlari biron kecha to'yib uxlamasdim, kunduzlari ham ilmdan boshqa narsa bilan shug'ullanmasdim. Har bir masalani o'rganayotganimda bir qancha

qiyosiy faktlarni solishtirib, shu faktlar nuqtayi nazaridan o'sha dastlabki masala yuzasidan xulosa chiqarar edim. Nihoyat, uning asl mohiyati menga ayon bo'lib qolardi. Ana shu zaylda hamma bilimlarni mustahkam egallab oldim. Bir insonning imkoniyati darajasida ularni o'zlashtirdim". Ibn Sino zaruriy bilimlarning barchasini Buxoroda olgan. Vaqt o'tib, o'zi ham asarlar yozishga kirishgan.

Muhokama va natijalar

Abu Ali ibn Sinoning tirishqoqligi va matonatli bo'lgani haqida o'zi bunday yozadi: "Mantiq, tabiat va matematika bilimlarini puxta o'rganib oldim. Keyin ilohiyotni o'rganishga o'tib, "Metafizika" kitobini o'qidim. Lekin unda nimalar deyilganini tushuna olmadim, kitob yozgan kishining maqsadi menga qorong'u edi. Hatto uni qirq bir marta o'qidim, kitob yod bo'lib ketdi. Shunda ham kitob va uning maqsadini to'la tushunib yeta olmadim. Nihoyat, umidimni uzib, "Bu tushunib bo'lmaydigan bir kitob ekan", degan xulosaga keldim. Ammo kunlardan bir kun asr vaqti kitobfurushlarning oldiga borib qoldim. Bir kitobfurush muqovalangan kitobni qo'lida tutganicha uni maqtardi. U meni ham chaqirib, kitobni ko'rsatdi... Lekin men kitobni sotib olishni rad qildim. Kitobfurush menga: "Bu kitobni ol, narxi arzon, uch dirhamga sotaman, egasi pulga muhtoj", dedi. Kitobni noiloj sotib oldim. Qarasam, u Abu Nasr Forobiyning "Metafizika" kitobi haqida yozgan sharhi ekan. Uyga qaytib, darrov uni o'qishga kirishdim. Asar yod bo'lib qolgani sababli tezda bu kitobning maqsadini tushunib oldim. Bu ishdan o'zimda yo'q xursand edim". Allomaning ilmiy ijodi o'n sakkiz yoshdan boshlangan. Dastlab bu ishni o'ziga yaqin bo'lgan kishilarning iltimosi bilan bajargan. Yosh bo'lishiga qaramay, Nuh ibn Mansurga atab "Hadyatur rais" ("Rais Ibn Sino hadyasi") asari, "Urjuza fit tib" ("Tibbiyot haqida doston") she'riy asari hamda o'z qo'shnisi va do'sti Abuhusayn Aruziyning iltimosiga binoan ko'p fanlarni o'z ichiga olgan "Hikmatul Aruziy" ("Aruziy hikmati") asarini tasnif etgan. Ibn Sino Buxoroda yigirma jildli qomusiy asari "Al-Hosil val mahsul" ("Yakun va natija"), ikki jildli "Kitobul birr val ism" ("Yaxshilik va yomonlik kitobi") asarini va o'zining tabobatga oid birinchi risolasi "Tabobat lug'ati"ni yozgan. Bu risoladan ko'p tabiblar nusxa olib, keng foydalangan. Ibn Sinoning tabobat sohasida qilgan ishlari uning nomini asrlar

davomida shu fan bilan chambarchas bog'lab kelmoqda. Allomaning tabobat taraqqiyotidagi buyuk xizmati shundaki, u o'zigacha o'tgan turli xalq namoyandalari tomonidan tib ilmi sohasida to'plangan ma'lumotlarni saralab, muayyan bir tartibga solgan va ularni o'z tajribasi bilan boyitgan holda ma'lum nazariya va qonun-qoidalar asosida umumlashtirgan. Uning "Tib qonunlari" asarining jahon tib ilmi tarixi va taraqqiyotida tutgan o'rni beqiyosdir. U tib nazariyasini, xususan, anatomiya – inson tanasi tuzilishini mukammal bilgan. Ibn Sino o'tkir diagnost ham edi. Uning ba'zi tashxis usullari hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. O'sha paytlardayoq a'zoga urish orqali tashxis qo'ya olgan. Tabobat tarixida birinchi bo'lib vabo bilan o'latni farqlagan. Ibn Sino insoniyat tarixida ko'z jarrohligi amaliyotini birinchilardan bo'lib amalga oshirgan. Yuqumli kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni boshqalardan ajratish zarurligini ta'kidlagan. Chiqqan yelka suyagini joyiga solish usuli hozirgi kungacha Ibn Sino nomi bilan yuritiladi. Singan suyakni gipslash yo'li bilan davolash usuli ilk bor Ibn Sino tomonidan qo'llangan. Bemorlarni davolashda olim uch narsaga: tartib (parhez), dorilar bilan davolash va turli tibbiy tadbirlarni qo'llash (qon olish, banka qo'yish, zuluk solish, huqna va boshqalar)ga ahamiyat berish kerakligini ta'kidlagan. Ibn Sino salomatlikni saqlashda shaxsiy gigiyena, uyqu va jismoniy mashqlarning ahamiyati kattaligini uqtirgan. Alloma dorishunoslik sohasida ham chuqur tadqiqotlar olib borgan. Uning dorivor o'sim liklarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash usullari hozir ham qo'llaniladi. Alloma davolash jarayonida 540 dorivor o'simlikdan foydalangan bo'lib, ularning 396 tasidan hozir ham tibbiyotda keng foydalaniladi. Ibn Sino birinchilardan bo'lib kimyoviy usulda tayyorlangan dorilarni ishlatgan. Kasallikning turiga qarab avval sodda, so'ng murakkab tarkibli dorilar bilan davola gan. Eng muhimi, oziq-ovqatlarning shifobaxsh ta'siriga katta ahamiyat berib, davolashni tabiiy foydali mahsulotlar – meva-sabzavot, go'sht-sut va bosh qalardan boshlagan. Dori berishda bemorning mijozi, yoshi, yashayotgan joyidagi iqlim sharoitini hisobga olish zarurligini ta'kidlagan. Ibn Sino jahonda qomusiy olim sifatida tan olingan. Alloma asarlarini o'sha davrda Yaqin va O'rta Sharqning ilmiy tili bo'lgan arab tilida, ba'zilarini esa fors tilida bitgan. Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asar yozgani qayd etiladi. Afsuski, zamonlar o'tishi bilan ularning ko'pi yo'qolib ketgan. Bizgacha 242 tasi yetib kelgan. Allomaning asarlari butun insoniyat uchun boy meros bo'lib qoldi. Abu Ali ibn Sino sermahsul ijodi, boy ilmiy merosi bilan jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan allomadir. U o'z ilmiy-ijodiy faoliyati davomida nafaqat Markaziy Osiyo, balki Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida ham yuqori mavqega erishdi. Hatto G'arb ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Alloma o'z davrida "Olimlar peshvosi" va

"Tabiblar podshohi" kabi bir qancha unvonlarga sazovor bo'lgan. Ibn Sino asarlari G'arb mamlakatlarida XII asrdan boshlab lotin tiliga tarjima qilingan. Birgina "Tib qonunlari" asari lotinchada qirq marta to'liq holda nashr etilgan. Sharq va G'arbda Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asaridan 700 yil mobaynida tibbiyot sohasida asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan. "Kitobush shifo"ning ko'p bo'limlari, mantiq, musiqa, Yerning tuzilishi, geologik jarayonlar, metafizikaga doir qismlari ham lotin tilida bosmadan chiqqan.

Xulosa

Allomaning ilmiy ijodi, chuqur falsafiy mazmunni ifodalovchi ruboiylari Sharq adabiyotida qissalar janrining rivojlanishiga turtki bergan. Jahon olimlari tomonidan Abu Ali ibn Sino asarlari, uning faoliyati bo'yicha hozirgacha muntazam ilmiytadqiqot ishlari olib borilmoqda. Dunyo bo'ylab deyarli barcha tillarda alloma haqida asarlar bitilgan.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Petrov, V. D. „Ibn Sina-velikiy sredneaziatskiy ucheniy ensiklopedist." Abu Ali Ibn Sina. Kanon vrachebnoy nauki. Tashkent, 1981

2. ↑ *(unspecified title)*

3. ↑ *Avicenna and the Visionary Recital* (en), 2016-04-19. ISBN 9780691630540. „In this work a distinguished scholar of Islamic religion examines the mysticism and psychological thought of the great eleventh-century Persian philosopher and physician Avicenna (Ibn Sina), author of over a hundred works on theology, logic, medicine, and mathematics."

4. ↑ Daly, Jonathan. *The Rise of Western Power: A Comparative History of Western Civilization* (en). A&C Black, 2013-12-19 — 18 bet. ISBN 978-1-4411-1851-6.

5. ↑ *„Avicenna | Persian philosopher and scientist"*, *Encyclopedia Britannica (inglizcha), qaraldi: 2018-08-04*

6. ↑ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2003. 9-bet

7. ↑

Phytochemical analysis of the underground organ of medicinal Momordica charantia

Turgunov Jalaliddin Rahmonali o'g'li
Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies, doctoral student

Abstract. In this article, it is necessary to study the medicinal properties of the medicinal plant Momordica charantia L in folk medicine, and first of all to know their chemical composition. We determined the flavonoids in the phytochemical composition of the underground (root) part of the medicinal plant Momordica charantia L using the liquid chromatography method. In this research, we have provided information about this plant, which is native to India, is grown in Asian countries and is used in folk medicine, as well as the chemical composition of the plant.

Key words: chromatography, flavonoid, steroid, momordica charantia, rutin.

Kirish Momordica charantia is also popularly known as Indian cucumber and it contains amino acids, saponins, oils, alkaloids and phenols. Momordica fruits also contain a large amount of B vitamins, carotene, vitamin C and calcium. It should be noted that the roots of the whole Momordica charantia plant are useful because they contain the highest concentration of carotene (provitamin A). Carotene is very useful for our whole body. Vitamin C contained in its seeds regulates redox processes in the human body, it maintains the normal state of blood vessels, helps oxygen and useful trace elements to enter tissues, ensures blood clotting and eliminates inflammatory processes in the body, improves immunity and restores the nervous system after stressful situations.[1].

Our research aims to determine the phytochemical (flavonoids) content of the underground (root) part of Momordica charantia L. We did this using the following method.

Flavonoids in the sample were determined using liquid chromatography. 5-10 g of the sample is taken on an analytical scale and placed in a 300 ml flat flask. 50 ml of 70% ethanol solution is added to it. The mixture was heated at 70-800C under vigorous stirring for 1 hour, equipped with a magnetic stirrer, reflux condenser, and then stirred at room temperature for 2 hours. The mixture is cooled and filtered. 25 ml of 70% ethanol is added to the remaining part and re-extracted 2 times. The filtrates were combined and filled to the mark with 70% ethanol in a 100 ml volumetric flask. The resulting solution is spun in a centrifuge at a speed of 6000-

8000 rpm for 20-30 minutes. The resulting solution was taken from the top for analysis. [5].

In the literature, phosphorus, acetate buffer systems and acetonitrile were used as eluents for the determination of Steroids and Flavonoids with YuSSX. We used a phosphate buffer system and acetonitrile.

Chromatographic conditions:

Chromatograph Agilent-1200 (equipped with an autodoser)

- Column Exlipse XDB C 18 (reversed-phase), 5 µm, 4.6 x 250 mm

-Diode array detector (DAD), 254 nm, 272 nm identified.

-Reading speed 0.8 ml/min

- Eluent phosphate buffer: acetonitrile:

0-5 min 95:5,

6-12 min 70:30,

12-13 min 50:50,

13-15 min 95:5,

thermostat temperature 300C, -10 µl injected amount (vcol)

First, the working standard solutions and then the prepared working solutions were introduced into the chromatograph.

1-jadval

Flavonoids	*Mamardica* radicle
	Concentration mg/g
Dihydroquercetin	9,15
Luthionine	5,1
Rutin	25,08
Seneroside	7,1
Quercetin	11,12

Salidroside	
	4,17

When we analyzed the flavonoids in the roots of Momordica charantia plant, we found that digidoquercitin was 9.15 g, luteinin 5.1 g, rutin 25.08 g, seneroside 7.1 g, quercetin 11.12 g, salidroside 4.17 g.

Chemicals chromatogram of the root of Momordica charantia L: flavonoids

CONCLUSION

In summary, there are many compounds of medicinal value, among which flavonoids are important. These compounds reduce the fragility of blood vessels, improve the permeability of blood vessels, lower blood lipids and cholesterol, as well as prevent and treat cardiovascular and cerebrovascular diseases such as hypertension, cerebral hemorrhage, ischemic heart disease in the elderly, and used for treatment. Therefore, in our study, we analyzed the flavonoids in the root part of the Momordica charanti plant.

References

1. Villarreal-La Torre, V. E., Guarniz, W. S., Silva-Correa, C., Cruzado-Razco, L., & Siche, R. (2020). Antimicrobial activity and chemical composition of Momordica Charantia: A review. Pharmacognosy Journal, 12(1).
2. Rohajatien U, Harijono H, Estiasih T, Sriwahyuni E. Bitter melon (Momordica charantia L) fruit decreased blood glucose level and improved lipid profile of streptozotocin induced hyperglycemia rats. Curr Res Nutr Food Sci. 2018;6(2):359-70.

3. Chan FK, Hsu C, Li TC, Chen WH, Tseng KT, Chao PM. Bitter melon seed oil increases mitochondrial content in gastrocnemius muscle and improves running endurance in sedentary C57BL/6J mice. J Nutr Biochem. 2018;58:150-7.

4. Самадов, Б. Ш., Жалилова, Ф. С., Жалилов, Ф. С., & Муродова, Н. А. (2020). ФАРМАКОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА И ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТИТЕЛЬНОГО СЫРЬЯ "MOMORDICA CHARANTIA L"Новый день в медицине. Научно-реферативный, духовно-просветительский журнал, 1, 29.

5. Steven A., Cohen Daviel J. Amino acid analysis utilizing phenylisothiocyanata derivatives // Jour. Analytical Biochemistry – 1988. – V.17.-№1.-P.1-16.

Milliy iqtisodiyotda sanoat korxonalarining o'rni va vazifalari

Fazilov Shuxrat Shavkatovich
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistranti

Rivojlangan mamlakatlarda qayta ishlash sanoati endilikda ish bilan bandlikni ta'minlash bilan bir qatorda, yuqori darajada mehnat unumdorligi, innovatsiyalar va xalqaro savdoning o'sishini ta'minlovchi asosiy tarmoqlardandir. Xususan, dunyo YAIMning 90 foizdan ortiq ulushiga ega mamlakatlar o'z iqtisodiyotlarida sanoat rivojlanish strategiyasini joriy etkanlar[12]. Ayni paytda, qayta ishlash sanoati jahon yalpi ichki mahsulotining (YAIM) 16 foizini va dunyo mahsulotlar eksportining 69 foizini tashkil etadi[13].

Jahonda qayta ishlash sanoatining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalarini aniqlash, ayniqsa, to'rtinchi sanoat inqilobining asosiy unsurlarini tadqiq etish, "aqlli sanoat" ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda so'nggi o'n yil ichida YAIM tarkibida qayta ishlash sanoatining yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi. Yaqin kelajakda bu boradagi ishlarni izchil davom ettirish rejalashtirilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, qayta ishlash sanoati milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlashda ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash, yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini ko'paytirish va sanoat ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravar oshirish – Taraqqiyot strategiyasining 22-maqsadi qilib belgilangani ham yuqoridagi fikrni yana bir bor tasdiqlaydi[14].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi PF-5614-sonli "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2023 yil 12 oktyabrdagi PF-169-sonli "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari, 2017 yil 13 fevraldagi PQ-2772-sonli

---

[12] ЮНКТАД. Доклад о мировых инвестициях: инвестиции и новая промышленная политика (издание ООН, 2018) https://unctad.org/system/files/official-document/wir2018_overview_ru.pdf.

[13] Jahon banki ma'lumotlar bazasi, 2024. https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators.

[14] "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. https://lex.uz/docs/5841063

"2017-2021 yillarda elektrotexnika sanoati boshqaruvini jadal rivojlantirish va diversifikatsiyalashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 16 iyundagi PQ-4453-sonli "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021 yil 13 fevraldagi PQ-4992 sonli "Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar orqali mamlakatimizda sanoat korxonalarining huquqiy mexanizmlari ishlab kelmoqda.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va raqamli iqtisodiyotni shakllanishi sharoitida mamlakatimizda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash, tarmoqlar va sohalarda ishlab chiqarishni samarali tashkil etish va boshqaruv samaradorligini oshirish, korxonalar va aksiyadorlik jamiyatlari, kompaniya va firmalarda korporativ boshqaruvni samarali tashkil etish, ishlab chiqarishni samarali tashkil etish, korxonalar amaliyotida korporativ boshqaruv standartlari va kodekslarini ishlab chiqish, davlatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llash kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2023-yil 11-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risida"gi 158-son Farmoni1 asosida qabul qilingan mazkur strategiyada 5 ta ustuvor yo'nalish bo'yicha 100 ta muhim maqsad o'z aksini topgan bo'lib, mazkur hujjat orttirilgan tajriba, xalqaro ekspertiza va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqildi.

Xususan, sanoat sohasini barqaror rivojlantirish, mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish, sanoatning "drayver" sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish, sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish kabi vazifalar belgilangan[15].

Sanoat - moddiy ishlab chiqarishning eng yirik, yetakchi tarmog'idir. Unda mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste'mol tovarlarining ko'pchilik qismi yaratiladi; mashina va mexanizmlarning barcha turlari, bino va inshootlarning konstruktiv elementlari ishlab chiqariladi; yer osti boyliklari qazib olish amalga oshiriladi; mineral, o'simlik va hayvon xomashyosiga ishlov beriladi, keng iste'mol mollari tayyorlanadi va hokazolar.

---

[15] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/6600413.

Sanoat milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari bilan ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyot, fan, maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport, turizm va boshqa sohalar rivoji sanoatning taraqqiyot darajasiga bog'liq. Ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari taraqqiyotida sanoatning tarixiy roli beqiyosdir. Shu sababli, uning rivoji va samaradorligi qanchalik yuqori bo'lsa, davlatning mavqei shunchalik kuchli bo'ladi va aholi turmush darajasi yanada yaxshilanib boradi. Sanoat jamiyatning yetakchi kuchi bo'lgan ishchilar sinfini o'zida birlashtiradi. Sanoat rivoji tufayli unda band bo'lgan xodimlarning soni ko'payadi, ularning bilimi va ilmi, mahorati ortadi, kadrlar salohiyati yuqori darajaga ko'tariladi.

Sanoatni rivojlantirishning dolzarbligi va iqtisodiyotni takomillashtirishda tutgan o'rnining nihoyat darajada kengligi bilan doimiy ravishda tadqiqotchi olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Xususan mahalliy olimlardan A. Abdugaffarov, N. Mardiyev, Z. Siddiqovlar moliyaviy jarayonlarni baholash modellari va amaliy masalalarni yechish usullariga bag'ishlangan bo'lib, moliyaviy jarayonlarini tahlil qilishning asosiy maqsadi korxonaning moliyaviy jarayonlarini ahvolini har tomonlama o'rganib, uning holatiga baholash modellari orqali aniq baho berish, mablag' va manbalarning joylanishini tekshirish, ularni to'g'ri yo'nalishda ishlatilayotganini baholash modellari orqali aniqlash, moliyaviy jarayonlar qanday amalga oshirilayotganini baholash metodlari orqali aniqlash va to'lov qobiliyatiga baho berishni aniqlagan. Shuningdek, rivojlangan davlatlar milliy iqtisodiyotida yengil sanoat korxonalarining tutgan o'rni, yengil sanoatning iqtisodiy va strategik rejalashtirish, yengil sanoatning jadal va barqaror rivojlanishini ta'minlash, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash orqali birinchi navbatda tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lgan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlari ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va kengaytirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalarni asoslab bergan[16].

2022-yil yakunlari bo'yicha respublikada 98,8 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 16,8 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 17,0 foizi) Toshkent shahriga, 11,1 mingtasi (11,2 foizi) Farg'ona viloyatiga, 10,0 mingtasi (10,1 foizi) Toshkent viloyatiga, 9,9 mingtasi (10,0 foizi) Andijon viloyatiga va 8,9 mingtasi (9,0 foizi) Samarqand viloyatiga to'g'ri kelmoqda.

---

[16] Абдугаффаров А., Мардиев Н.,Сиддиқов З. Молиявий жараёнларни баҳолаш моделлари ва амалий масалаларни ёчиш усуллари. Монография. – Т .: "Fan ziyosi" нашриёти, 2021. – 132 б.

1-rasm: O'zbekistondagi sanoat korxonalari soni, yil boshiga[17].

Qayta ishlab chiqarish tarmog'ining yuqori sur'atlarda o'sishi, barqaror ish o'rinlari tashkil etilishi va aholi bandligini ta'minlashga tarmoqning ko'p mehnat talab qiladigan oziq-ovqat sanoati (2019-2021-yillarda 27 foizga), to'qimachilik va tikuvchilik sanoati (45 foizga) ning barqaror o'sishi yordam berdi. Kimyo (16 foiz), metallurgiya (24 foiz) kabi boshqa bazaviy tarmoqlar barqaror rivojlandi. Ushbu davrda mashinasozlik sanoatida (30 foiz) sezilarli o'sishga erishildi. Bu kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar (3,4 baravar), elektr jihozlari (10,5 foizga), shuningdek, avtotransport vositalari (13 foizga) ishlab chiqarishni faol rivojlantirish hisobiga sodir bo'ldi.

Keyingi qadamlar: 2022─2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish va yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqaradigan yangi korxonalar tashkil etish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar va loyihalar ko'zda tutilgan:

● klasterlar yaratish, mis, tabiiy gaz va boshqa xomashyolarni qayta ishlashni chuqurlashtirish;

● avtomobilsozlik sohasida kooperatsiyani rivojlantirish va mahalliylashtirish darajasini oshirish;

● qurilish materiallari ishlab chiqarishni ikki barobarga oshirish;

● to'qimachilik sanoati ishlab chiqarish hajmini ikki barobarga oshirish;

● charm-poyabzal sanoatini rivojlantirish va ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish;

● farmatsevtika sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish;

● elektrotexnika sanoatini rivojlantirish va ishlab chiqarishni ikki barobar oshirish.

Bundan tashqari, tayyor mahsulotlarni Yevropa bozorlariga eksport qilishni rag'batlantirish, shuningdek, ishlab chiqarish samaradorligini va mehnat

---

[17] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida. https://stat.uz/uz.

unumdorligini oshirish dasturlarini amalga oshirish hamda kadrlar tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish nazarda tutilgan.

Olib borilgan tadqiqotlarimizga xulosa qilib ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda barqaror sanoatlashtirishni ta'minlash uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan qo'shimcha tadbirlar quyidagilardan iborat:

● energetika, avtomobil transporti va boshqa sanoat infratuzilmalarni kompleks rivojlantirish;

● mahalliy muhandislik-tadqiqot va ishlanmalar bazasini rivojlantirish hamda ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va kengaytirish, sanoat tarmoqlarining texnologik salohiyatini yuksaltirishda har tomonlama yordam ko'rsatish;

● sanoatni modernizatsiya qilish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida tayyor mahsulot ishlab chiqarish, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda havfsiz ekologik texnologiyalar va ishlab chiqarish jarayonlaridan kengroq foydalanish uchun zarur investitsiyalar hajmini ta'minlash.

Shuningdek mamlakatimizda yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirishning yaxlit tizimini joriy etish, investitsiyalarni faol jalb etish, xaridorgir mahsulotlarning keng assortimentini o'zlashtirish, hududlarda yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish texnologiyalarini o'zlashtirgan holda innovatsion o'quv-ishlab chiqarish texnoparklarini tashkil etish zarur deb hisoblaymiz.

O'zbek va fransuz tillaridagi qofiyadosh maqollarda so'z turkumlari

Muqumov Toshqobil Bozor o'g'li
SamDChTI o'qituvchisi

